

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ VA SUV XO'JALIGI
VAZIRLIGI**

SAMARQAND QISHLOQ XO'JALIK INSTITUTI

Qo'lyozma huquqida
UDK: 619:636.2:618:615

MAMATKULOVA ZARIFA NORMUROTOVNA

**“Sigirlarda bachadon subinvalyutsiyasini davolashda
qo'llaniladigan ayrim farmakoterapevtik vositalar”**

5A 440103-Veterinariya farmakologiyasi va toksikologiyasi

**Magistr
akademik darajasini olish uchun yozilgan**

D I S S E R T A S I Y A

Ilmiy rahbar: veterinariya
fanlari nomzodi, dotsent
Xoliqov A.A.

Samarqand – 2016

M U N D A R I J A

	KIRISH.....	3
I-bob.	ADABIYOTLAR SHARHI.....	9
1.1.	Bachadonni kasalliklarining tasnifi va ularning oqibatlari.....	9
1.2.	Fermer xo'jaliklari sharoitida sigirlarda bachadon kasalliklarining etiopatogenezi va diagnostikasi.....	22
1.3.	Sigirlarda bachadon kasalliklarini, bachadon subinvalyutsiyasini davolash va oldini olish.....	27
	I-bob bo'yicha xulosa.....	37
II-bob.	XUSUSIY TADQIQOTLAR.....	39
2.1.	Xo'jalikning iqtisodiy tavsifi.	39
2.2.	Tadqiqotlar ob'ekti va uslublari.....	41
2.3.	Qoramollar qonining morfologik ko'rsatgichlariga sigetinni ta'siri.	46
2.4.	Sigirlarda bachadon subinvalyutsiyasini davolash tajribalarining natijalari.....	52
2.4.1.	Sigirlarni oziqlantirishning tahlili.....	58
2.4.2.	Klinik, gematologik va ginekologik tekshirish natijalari.....	59
2.4.3.	Sigirlarda bachadon subinvalyutsiyasini davolash natijalari.....	62
2.5.	Iqtisodiy samaradorlikni hisoblash.....	68
	II- bob bo'yicha xulosa.....	69
III-bob.	TADQIQOT NATIJALARI BO'YICHA MULOHAZALAR...	70
	III-bob bo'yicha xulosa.....	80
	Xulosa.....	81
	Amaliy tavsiya.....	82
	Foydalangan adabiyotlar ro'yxati.....	83
	Ilova	89

KIRISH

Hayvonlarning salomatligini va mamlakatimiz hududining sog'lomligini ta'minlashda yuqori malakali va yuqori iqtisodiy samara beruvchi veterinariya xizmatini tashkil etish hamda uni amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Davlatimiz rahbari I.A.Karimov har doim qishloq xo'jaligini rivojlantirishga katta ahamiyat bermoqda, respublika aholisini chorva mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojini qondirish maqsadida, chorvachilikning barcha sohalarini rivojlantirish maqsadga muvofiq deb hisoblaydilar.

Mamlakatimiz ishlab chiqarish va intellektual salohiyatining yarmidan ortig'i muayyan tarzda bevosita qishloq xo'jaligi bilan bog'liq. Qishloq xo'jalik mahsuloti mamlakatda valyuta tushumlarining 55 foizidan ortig'ini ta'minlaydigan muhim eksport manbalaridan biri hisoblanadi. Bu masalaning iqtisodiy jihati. Ijtimoiy sohada esa mamlakatning qishloq joylarida istiqomat qiladigan aholisining katta qismining, butun Respublika aholisining tushuntirish darajasi, uning moddiy farovonligi qishloq xo'jaligidagi ishlarning ahvoliga uni rivojlantirish samaradorligiga bog'liq.

Eng muhimi bu – muammoning siyosiy jihatidir. Bugun biz shuni tobora chuqur anglab yetamizki, jamiyatimizning umuman yangilanishi, demokratik jarayonlarining rivojlanishi va ko'p jihatdan qishloq xo'jaligida islohotlar nechog'li samarali kechayotgani, qishloq hayotining barcha jabhalarida qanchalik chuqur kirib borayotgani bilan bog'liq.

Bu vazifalarni hal qilish uchun nafaqat amaliyot, balki fan oldida katta vazifalar turibdi.

Prezidentning 308 va 842-qarorlari. O'zbekiston Respublikasi hukumati va Prezidenti I.A. Karimov tomonidan keyingi yillarda qishloq xo'jaligini, ayniqsa chorvachilikning muhim sohalaridan biri bo'lgan qoramolchilikni rivojlantirishga juda katta e'tibor berilmoqda. Bu borada Respublikamiz Prezidenti I.A. Karimovning bir qancha farmonlari va qarorlari e'lon qilindi. Bulardan biri 23 mart 2006 yilda chiqarilgan "Shaxsiy yordamchi, dehqon va fermer xo'jaliklarida

chorva mollarini ko'paytirilishini rag'batlantirish chora – tadbirlari to'g'risida” 308 – qarori va “Shaxsiy yordamchi, dehqon va fermer xo'jaliklarida chorva mollar ko'paytirishni rag'batlantirishni kuchaytirish hamda chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarishni kengaytirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida” gi 2008 yil 21 apreldagi PK-842 qarori chorvachilikni rivojlantirishga yana bir turtki berdi.

Respublikimiz mintaqasida kechayotgan iqtisodiy isloxotlar asosida yangi mulkchilikda shakllangan tipdagi xo'jaliklarni yaratish, bu xo'jaliklarni iqtisodiy va xususiy negizlarini ishlab chiqish shu asosida axolini oziq – ovqatga bo'lgan ehtiyojini qondirish, ma'naviy – mafkuraviy yangi dunyo qarashni shakllantirish katta ahamiyat kasb etadi.

Dissertasiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi. Qoramollar zotini yaxshilash va mahsuldorligini oshirish muammolarini samarali hal etishga katta to'sqinlik qilayotgan hayvonlarning yuqumsiz kasalliklari orasida sigirlarning bachadon kasalliklari, ayniqsa bachadon subinvalyutsiyasi asosiy o'rinni egallaydi.

Adabiyot ma'lumotlarining tahlili va shaxsiy kuzatishlardan shu narsa ma'lum bo'ldiki, Respublikamizning chorvachilik fermer xo'jaliklarida sigirlar orasida bachadon subinvalyutsiyasi kasalligi oqibatidagi bepushtliklarning keng tarqalganligiga qaramasdan, bu kasallikning sabablari, chorvachilikni yuritishning o'zgarishi bilan bog'liqligi, barvaqt diagnostika qilish, samarali davolash usullari va profilaktika qilish chora-tadbirlari to'liq ishlab chiqilmagan.

Sigirlarda bachadon subinvalyutsiyasi kasalligi oqibatida hayvonlar mahsuldorligining keskin pasayishi, ona hayvonlar reproduktiv xususiyatlarining yomonlashishi, qisir qolishi hisobiga fermer xo'jaliklari katta iqtisodiy zarar ko'rmoqda.

Tadqiqot obyekti va predmeti. Tekshirishlar Samarqand qishloq xo'jalik instituti, "Veterinariya" fakulteti, "Hayvonlar anatomiyasi, fiziologiyasi, jarrohligi va farmakologiya" kafedrasida Samarqand viloyati Pstdarg'om tumani "Jo'ra" chorva fermer xo'jaligi va Samarqand qishloq xo'jalik instituti o'quv tajriba xo'jaligida bajarildi.

Tadqiqot maqsadi va vazifalari. Magistrlik dissertasiyasini bajarishdan asosiy maqsad, qoramollarni bachadon subinvalyutsiyasini kasalligini samarali davolash usullarini ishlab chiqish va amaliyotga tadbiiq etish hamda uni ilmiy va amaliy asoslash.

Qo'yilgan maqsaddan quyidagi vazifalar hal qilinishi kerak:

1. Xo'jalikda bachadon subinvalyutsiyasi kasalligini tarqalish darajasini o'rganish.
2. Sigirlar qonning morfologik ko'rsatgichlariga sigetinni ta'sirini o'rganish.
3. Bachadon subinvalyutsiyasi bilan kassalangan hayvonlarni klinik, gematologik va genikologik tekshirish natijalarini o'rganish.
4. Sigirlar bachadon subinvalyutsiyasi kasalligini davolashni samarali usullarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy qilish.

Ilmiy yangiligi. Fermer xo'jalik sharoitlarida sigirlarda bachadon subinvalyutsiyasi obektiv klinik manzarasi va ertachi aniqlash usullarini o'rganildi, oziqlanish ratsioni va qonning morfologik hamda kasallikni klinik tahlili o'rganildi, yangi samarali davolash usuli yaratildi.

Tadqiqotning asosiy masalalari va farazlari. Hozirgi kunda veterinariya sohasining jadal rivojlanishi, ayniqsa farmakologiya sohasida olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar chorvachilikni rivojlantirish, hayvonlar sog'ligini saqlash va mahsuldorligini oshirishga qaratilgan. Shunday ekan, sigirlar bachadon subinvalyutsiyasi davolashda yangi farmakologik vositalarni qo'llab samarali davolash usullarini yaratish muhimdir va olingan natijalarni amaliyotga tadbiiq

etish faning muvaffaqiyatini ta'minlovchi omildir. Shuning uchun magistrlik dissertasiyasini asosiy masalasi bo'lib, sigirlarda bachadon subinvalyutsiyasini davolashni yangi usulini yaratish chorvachilik amaliyot uchun muhimdir.

Olib borilgan tadqiqot natijasida sigirlar bachadon subinvalyutsiyasi davolashni yangi usuli amaliyotga tavsiya etiladi.

Tadqiqot mavzusi bo'yicha adabiyotlar sharhi (tahlili). Qoramollar zotini yaxshilash va mahsuldorligini oshirish muammolarini samarali hal etishga katta to'sqinlik qilayotgan hayvonlarning yuqumsiz kasalliklari, shu jumladan sigirlarning bachadon subinvalyutsiyasi kasalligi asosiy o'rinni egallaydi.

Adabiyot ma'lumotlarining tahlili va shaxsiy kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, Respublikamizning chorvachilik fermer xo'jaliklariga chetdan keltirilgan mahsuldor sigirlarda bachadon subinvalyutsiyasi kasalligi oqibatidagi bepushtliklarning keng tarqalganligiga qaramasdan, bu kasallikning sabablari, rivojlanish xususiyatlari, ertachi aniqlash, davolash va oldini olishning samarali usullari to'liq ishlab chiqilmagan.

Sigirlarda bachadonning turli kasalliklari, shu jumladan bachadon subinvalyutsiyasi kasalligi oqibatida hayvonlar mahsuldorligining keskin pasayishi, ona hayvonlar reproduktiv xususiyatlarining yomonlashishi va ularning qisir qolishi hisobiga fermer xo'jaliklari katta iqtisodiy zarar ko'rmoqda. (Koba I.S.2003)

Fermer xo'jaliklari sharoitida sigirlarda bachadonning kasalliklari orasida bachadon subinvalyutsiyasi, klinik (o'tkir, surunkali, zardobli, zardobli-yiringli) va yashirin endometritlar keng tarqalgan bo'lib, katta iqtisodiy zararga sabab bo'lmoqda.

Bachadonning subinvalyutsiyasi - deganda tuqqandan keyin bachadonni bepushtlik holatiga qaytishining sekinlashishi, ya'ni invalyusiyasining kechikishi tushiniladi. Kasallik barcha turdagi hayvonlarda, ko'pincha sigirlarda qayd etiladi.

Bachadonning subinvalyusiyasi ayniqsa Respublikamizga chetdan keltirilayotgan mahsuldor sigirlar orasida ko'p uchramoqda (B.M.Eshbo'riev, 2012).

Bachadon subinvalyutsiyasi paytida uning qisqaruvchanligi yo'qoladi, to'planib qolgan loxiyning chirishidan hosil bo'layotgan va unda rivojlanayotgan mikroorganizmlar ajratayotgan toksinlarning qonga so'rilishi organizmning zaharlanishi kuzatiladi. Bundan tashqari bachadon muskullari retraksiyasining kechikishi oqibatida uning degenerativ o'zgarishlari, tug'ruqdan keyingi sepsis jarayonining rivojlanishi xarakterli bo'ladi.

Tadqiqotda qo'llanilgan metodikaning tavsifi. Tadqiqotlarni o'tkazish jarayonida hayvonlarni umumiy va maxsus tekshirish usullaridan foydalanildi: anamnez ma'lumotlarini yig'ish, ko'rikdan o'tkazish, qondagi morfologik ko'rsatkichlarni aniqlash, sigirlarni rektal tekshirish, rasmga olish hamda hujjatlashtirish. Qondagi gemoglobin miqdori (gemoglobin-sianidli usuli), eritrotsitlar va leykotsitlar (Goryaev sanoq to'rida) tekshirildi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Biz tajriba o'tkazgan chorva fermer xo'jaligida sigirlar bachadon subinvalyutsiyasini asosiy sabablari bo'lib patologik tug'ishlar, bachadonni chiqib ketishi va yo'ldoshni ushlanib qolishi, sigirlar bo'g'ozligini 2- yarmida aktiv matsionni bo'lmasligi, oziqlantirishda bir tamonlama, sifatsiz oziqlantirish ayniqsa, mineral va vitaminli moddalar yetishmovchiligi hisoblanadi.

Sigetin preparatidan 15 ml dozada kuniga bir marta 5 kun davomida muskul orasiga, limoksin-200 antibiotigidan 12 ml kuniga bir marta 5 kun davomida muskul orasiga, neofur tayoqchalaridan 2 dona bachadon ichiga, trivit 15 ml dozada muskul orasiga, 10%-li kalsiy xlorid eritmasidan 150 ml, 20%-li glyukoza eritmasidan 250 ml, 20%-li kofein natriy benzoat eritmasidan 10 ml vena qon tomiriga yuborilsa samarali davolovchi natija beradi.

Ish tuzilmasining tavsifi. Dissertasiya 88 bet kompyuter yozuvida bajarildi. Unga kirish, adabiyotlar sharhi, tadqiqotlar obyekti va uslublari, tajribalarning natijalari, tadqiqot natijalari bo'yicha mulohazalar, xulosalar, amaliy tavsiya, 76 ta adabiyotlardan tashkil topgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat xususiy tadqiqotlar kiradi.

I-bob. ADABIYOTLAR SHARHI

1.1. Bachadonni kasalliklarining tasnifi va ularning oqibatlari

Fermer xo'jaliklari sharoitida sigirlarda bachadoning kasalliklari orasida bachadon subinvalyutsiyasi, klinik (o'tkir, surunkali, zardobli, zardobli-yiringli) va yashirinendometritlarkeng tarqalgan bo'lib, katta iqtisodiy zararga sabab bo'lmoqda.

1. **Bachadonning subinvalyutsiyasi** - deganda tuqqandan keyin bachadonni bepushtlik holatiga qaytishining sekinlashishi, ya'ni invalyusiyasining kechikishi tushiniladi. Kasallik barcha turdagi hayvonlarda, ko'pincha sigirlarda qayd etiladi. Bachadonning subinvalyutsiyasi ayniqsa Respublikamizga chetdan keltirilayotgan mahsuldor sigirlar orasida ko'p uchramoqda (B.M.Eshburiev, 2012).

Bachadon subinvalyutsiyasi paytida uning qisqaruvchanligi yo'qoladi, to'planib qolgan loxiyning chirishidan hosil bo'layotgan va unda rivojlanayotgan mikroorganizmlar ajratayotgan toksinlarning qonga so'rilishi organizmning zaharlanishi kuzatiladi. Bundan tashqari bachadon muskullari retraksiyasining kechikishi oqibatida uning degenerativ o'zgarishlari, tug'ruqdan keyingi sepsis jarayonining rivojlanishi xarakterli bo'ladi.

Sabablari. Ko'p bolali egizlik, homila oldi suyuqligining haddan tashqari ko'p bo'lishi, homilaning juda katta bo'lishi, gipofiz bezi orqa bo'lagi va yo'ldoshning funksional etishmovchiliklari bo'lishi mumkin. Kasallikning ikkilamchi sabablari bo'g'oz hayvonga matsionning etarli bo'lmasligi, noto'g'ri ishlatish, bir tomonlama oziqlantirish, etarlicha oziqlantirmaslik, ratsionda vitaminlar va mineral moddalarning etishmasligi hisoblanadi.

Klinik belgilari. Jinsiy yo'llardan loxiy ajralishining to'xtashi va ayniqsa hayvon yotganda ko'p miqdorda ajralishi, tuqqandan keyingi birinchi kunda bachadondan ko'p miqdorda suyuq qonsimon, keyinchalik, to'q-jigarrang loxiy suyuqligi ajraladi. Ba'zan qon aralash loxiy suyuqligi 2 haftagacha oqib turadi. Bu paytda o'rta bachadon arteriyasining vibratsiyasi saqlanib turishi mumkin.

Hayvonning umumiy holatida jiddiy o'zgarish kuzatilmasada, umumiy holsizlanish, ishtahaning pasayishi, vaqti-vaqti bilan tana haroratining ko'tarilib turishi kuzatiladi.

Qin shilliq pardasi shishgan, bachadon buyinchasi kanali ochiq bo'lib, tuqqandan keyingi 10 kunda ham qo'l ketishi mumkin. Bachadon kattalashgan, uning devori bo'shashgan, ko'pincha bola rivojlangan shoxining flyuktuatsiyasi seziladi. Ba'zan sigirlarda korunkulalarni ham paypaslash mumkin. Massaj qilinganda bachadon deyarli qisqarmaydi (atoniya) tuxumdonlardan birida, asosan homila rivojlangan tomondagi tuxumdonda sariq tana borligi anqlanadi.

Kasallik surunkali tarzda kechganda bachadondan loxiy ajralishi butunlay to'xtaydi va hayvonda hech qanday klinik o'zgarishlar kuzatilmaydi. Faqatgina ginekologik tekshirishlar o'tkazish orqali bachadonni kattalashganligi, devorining qalinlashishi va paypaslanganda qisqarmasligini aniqlash mumkin. Kasal hayvonda jinsiy siklni to'liqsiz bo'lishi, anofrodiziya yoki bir necha marta urug'lantirilishga qaramasdan bepusht bo'lishi kuzatiladi.

Kasallik engil kechganda 3-4 marta urug'lantirishdan keyin hayvon bo'g'oz bo'lishi mumkin. Ko'pincha bachadon subinvolsiyasi oqibatida endometritlar rivojlanadi.

2. O'tkir endometrit (Endometritis). Bachadon shilliq pardasining yallig'lanishi bo'lib, hamma turdagi hayvonlar uchraydi va hayoti davomida yuzaga keladigan bepushtlikning asosiy sabablaridan biri hisoblanadi. Yallig'lanish mahsulotlarining ta'sirida jinsiy hujayralar nobud bo'ladi yoki zigota fagotsitozga uchraydi.

Bachadon shilliq pardasining yallig'lanishi natijasida tuxumdonlar ko'pincha ikkilamchi tartibda shikastlanadi (sariq tana turib qoladi, follikulalar yorilmaydi, yallig'lanishga uchraydi va h.k.) va follikullarning etilishi izdan chiqadi.

O'tkir endometrit giperemiya va bachadon shilliq pardasining shishi bilan kechadi. Giperemiyaning zo'rayishi bilan tomirlarning ekstravazatsiyasi, ya'ni qon

zardobi va hatto, shaklli elementlarining tomirlar devori orqali bachadon hujayralari orasidagi bo'shliqqa sizib chiqishi kuzatiladi.

3. Surunkali endometrit. Bu kasallik, odatda, o'tkir endometrit oqibatida kelib chiqadi va endoteliyning kuchli o'zgarishi hamda bachadon bezlarining kuchli sekretsiyasi bilan kechadi. Ekssudatning xarakteriga ko'ra, kataral, yiringli-kataral va yiringli surunkali endometritlar farqlanadi.

Surunkali endometritlarda, ba'zan bachadon bo'ynining juda shishib ketishi tufayli ekssudat bachadon bo'shlig'ida to'planib qoladi. Ekssudat suvga o'xshagan suyuq bo'lsa (kataral ekssudat) bachadon istisqosi (Hydrometria) deb ataladi. Bachadonda ko'p miqdorda yiringli ekssudat to'planganda piometra (Piometria) vujudga keladi. Yashirin o'tadigan surunkali endometrit surunkali kataral endometritning bir turidir.

4. Yashirin surunkali endometrit. Kasal sigirlarda kuyikishlar orasidagi davrda klinik belgilar sezilmaydi va to'g'ri ichak orqali hamda qin orqali tekshirishda ham normadan tashqari o'zgarishlarni topib bo'lmaydi. Hayvon kuyikkan paytida esa bachadondan odatdagidan ko'ra ko'proq loyqalangan, ba'zan yiringli ekssudat aralashgan suyuqlik chiqadi.

Urg'ochi hayvonlar muntazam kuyukib, urug'lantirilib turilsada, bo'g'oz bo'lmaydi. Shu xilda o'tadigan endometritda hayvonlarning qisir qolishi jinsiy yo'llarida spermatozoidlarning harakatiga to'sqinlik qiladigan shilimshiqning haddan tashqari ko'p bo'lishi hamda bachadondagi ekssudatining spermatozoidlarga o'ldiruvchi ta'sir etishi sababli kuzatiladi.

5. Surunkali yiringli-kataral endometritda ham surunkali kataral endometritdagi belgilar xarakterlidir, biroq bachadondagi o'zgarishlar ancha keskin ifodalangan bo'ladi. Bu hol yiring hosil qiluvchi mikroorganizmlarning faoliyatiga bog'liq. Kasallangan sigirlar jinsiy lablar tekshirilganda ko'tarilib turganligi va jinsiy yoriq pastki burchakning junlarda jigarrang-sariq yiring qotmalari topiladi. Dumning ichki yuzasi ham ko'pincha shunday qotmalar bilan qoplangan bo'ladi. Jinsiy teshikdan yiring aralash shilimshiq keladi.

Kasal hayvonlarning umumiy ahvoli qoniqarli bo'lsada, hayvon holsizlanib, ozib ketadi, ishtahasi kamayadi, tana harorati ko'tariladi.

6. Surunkali yiringli endometrit ko'pincha sigirlarda va ba'zan boshqa hayvonlarda uchraydi. Surunkali yiringli endometritning uch shakli farqlanadi.

Birinchi shakli «oqma» deb ataladi va bachadon bo'yni kanali ochiq turganligi sababli doimo yiringli ekssudat chiqib turadi. Kasallikning bu turi bachadon involyusiyasining sekinlashishi tufayli kelib chiqadi.

Ikkinchi turida jinsiy yo'llardan vaqti-vaqti bilan yiringli ekssudat kelib turadi. Bunga bachadon shilliq pardasining shishib ketishi va bo'yni kanalining vaqtincha bekilib qolishi va bachadon devori muskullari tonusining pasayishi sabab bo'ladi. Yiringli ekssudat bachadon bo'shlig'ida to'planib boradi va hayvon tanasining vaziyatini o'zgartirganidagina (masalan yotganda) qin orqali oqib chiqadi.

Uchinchi shaklida bachadon bo'yni kanali zich bekilib turgani uchun yiringli ekssudat bachadondan tashqariga oqib chiqmaydi. Endometritning bu turi hayvonda trixomonoz yoki homilani rivojlanishining ilk davrida o'lib qolishi paytlarda vujudga keladi.

Yiringli endometritning piometra deb ataladigan ikki shakli tug'ish vaqtida bachadon bo'yni kanalining shikastlanib, keyin bitib ketishi natijasida, hayvon qarib, bachadon devori muskullarining atrofiyaga uchrashi yoki o'smalar vujudga kelishi tufayli va ba'zan ikkilamchi kasallik tarzida yuzaga keladi. (SH.B.Ata-Kurbanov, B.M.Eshburiev, 2009).

7. Parametrit (Parametritis). Parametrit deyilganda qin atrofidagi tos klechatkasi bilan bachadon tutqichlarining yallig'lanishi tushuniladi.

Parametrit odatda bachadonning o'tkir yallig'lanishi natijasida, ba'zan yallig'lanishning ichak va qorin pardasidan o'tishi natijasida vujudga keladi. Mikroorganizmlar bachadondan asosan qon va limfa yo'llari orqali atrof to'qimalarga o'tadi. Ko'pincha abscesslar paydo bo'ladi.

Kasal hayvonda tana haroratining ko'tarilishi, hayvonning bukchayib turishi, tez-tez kuchanish, defekatsiya va siydik ajratish vaqtida og'riq sezish

kuzatiladi. To'g'ri ichak va qin orqali tekshirishda hayvon juda bezovtalanadi, bachadonning shikastlangan devorlari va tutqichlari qo'lga qalin tortgan va shishgan bo'lib seziladi, ba'zan abscesslar topiladi.

Bachadon subinvalyutsiyasi paytida uning qisqaruvchanligi yo'qoladi, to'planib qolgan loxiyning chirishidan hosil bo'layotgan va unda rivojlanayotgan mikroorganizmlar ajratayotgan toksinlarning qonga so'rilishi organizmning zaharlanishi kuzatiladi. Bundan tashqari bachadon muskullari retraksiyasining kechikishi oqibatida uning degenerativ o'zgarishlari, tug'ruqdan keyingi sepsis jarayonining rivojlanishi xarakterli bo'ladi.

Kasallik surunkali tarzda kechganda bachadondan loxiy ajralishi butunlay to'xtaydi va hayvonda hech qanday klinik o'zgarishlar kuzatilmaydi. Faqatgina ginekologik tekshirishlar o'tkazish orqali bachadonni kattalashganligi, devorining qalinlashishi va paypaslanganda qisqarmasligini aniqlash mumkin. Kasal hayvonda jinsiy siklni to'liqsiz bo'lishi, anofrodiziya yoki bir necha marta urug'lantirilishiga qaramasdan bepusht bo'lishi kuzatiladi.

Bachadonning kasalliklari va ularning oqibatida kuzatiladigan bepushtliklarni ertachi aniqlash, kasal hayvon uchun optimal sharoit yaratish va xo'jaliklarning imkoniyatlarini e'tiborga olgan holda davolash tartibini belgilash hamda samarali davolashni tashkil etish shifokor faoliyatidagi eng muhim vazifalardan biridir. Bachadonning turli kasalliklari, shu jumladan bachadon subinvalyutsiyasi kasalligi oqibatidagi bepushtliklarga diagnoz qo'yishning bir qancha usullari mavjud.

Ginekologik tekshirish usullari. Ginekologik tekshirish kasal hayvon to'g'risidagi anamnez ma'lumotlarini yig'ish va klinik tekshirish natijalaridan tashkil topadi.

Anamnez - hayvon to'g'risidagi anamnez ma'lumotlarini to'plashda nima uchun veterinariya yordami kerak bo'lganligi, keyingi tug'ishning vaqti va xarakteri, hayvonning kuyikishi va uning kechish jadalligi, necha marta va qachon urg'ulantirilganligi, kechirgan kasalliklari, oziqlantirish va parvarishlash sharoitlari aniqlanadi.

Urg'ochi hayvonlarning qisirligi ko'pincha erkak hayvonlarga aloqador bo'lganligi uchun podadagi erkak hayvonlarning soni, ularning umumiy ahvoli va xo'jalikda yuqumli kasalliklar bor-yo'qligiga e'tibor beriladi.

Bundan tashqari, hayvonda siydik ajratish va tezaklash holati, martasini aniqlash kerak. Hayvonning tez-tez siydik va tezak ajratib turishi tos a'zolarida yallig'lanish jarayonlari borligidan darak beradi (qovuq, qin, to'g'ri ichak va boshqalarda).

Klinik tekshirishlar - patologik jarayonlar organizmda ayrim a'zolar funksiyasining buzilishi va strukturasining o'zgarishiga olib kelishi mumkin. Klinik tekshirishlar bilan a'zolarida aniqlangan funksional va morfologik o'zgarishlarga kasallik simptomlari (belgilar) deb ataladi.

Kasallik belgilariga baho berishda hayvonlarning yoshi, bo'g'ozlik va boshqa fiziologik holatiga aloqador ba'zi funksional o'zgarishlar sog'lom hayvonlarda ham uchrashi mumkinligi hisobga olinadi. Chunki bunday o'zgarishlarni patologiya deb bo'lmaydi.

Hayvonlarda uchraydigan deyarli hamma kasalliklarning o'ziga xos belgilari yoki belgilar yig'indisi bor, lekin kasallikni aniqlab olishda simptomokompleksdan asosiylarini ajrata bilish muhim. Bu tekshirish metodikasida ma'lum malaka bo'lishini, shuningdek, jarayonning o'tishidagi turli davrlarda kuzatiladigan kasallik belgilarini bilishni talab etadi.

Klinik tekshirishlar: 1) umumiy tashqi tekshirish; 2) ichki tekshirish; 3) laborator tekshirishlaridan (patologik material olish va uni laboratoriyaga yuborish yoki o'sha joyning o'zida tekshirish) iborat bo'ladi.

Umumiy tekshirishda hayvon organizmining yaxlitligini hamisha esda tutish va hayvonning jinsiy a'zolarini tekshirish bilangina cheklanmasdan, balki umumiy klinik tekshirishlar ham o'tkazilishi kerak. Ayni vaqtda hayvonning qorni (shakli, paypaslanganda og'riq sezishi), sag'risi (holati, shakli, tutqich apparatining holati) va tashqi jinsiy a'zolariga (yallig'lanish belgilari, suyuqlik ajralishi va uning xarakteri va b.) e'tibor beriladi.

Harakatlarning uyg'unligi, oqsoqlanish, artrit, bursit (brutsellyozga gumon tug'diradi) belgilari, hayvonning og'irligini bir oyoqdan ikkinchi oyog'iga solib turishi, tez-tez siydik ajratish va tezaklash, dumini likillatishi (trixomonozga gumon tug'diradi) va boshqa belgilar bor-yo'qligi tashqi tekshirish orqali aniqlanadi.

Ichki tekshirish- vaginal (qin orqali) va rektal (to'g'ri ichak orqali) tekshirishdan iborat bo'lib, jinsiy a'zolarida patologik jarayon yoki anomaliyalar oqibatida vujudga kelgan anatomik o'zgarishlarni ko'zdan kechirish va paypaslab ko'rish bilan aniqlashga imkon beradi.

Qin orqali tekshirishda qo'l bilan jinsiy lablar ochilib, qin dahlizining shilliq pardasi va klitor ko'zdan kechiriladi. Keyin paypaslash bilan qin dahlizi, qin va bachadon bo'yni tekshiriladi.

Ko'zdan kechirish vaqtida tabiiy yoki sun'iy yorug'likdan (reflektor, elektr fonarcha) foydalaniladi. Qin shilliq pardasi normal holatda och qizil yoki qizil rangda va o'rtacha namlikda bo'ladi. Shilliq pardada patologik o'zgarishlar kuzatilganda qizarish, shishgan joylar, katta-kichik qon quyilishlar, shilimshiqli, yiringli ekssudat oqishi va yorilishlar, tugunlar, pufakchalar, eroziyalar va hokazolar paydo bo'ladi. Bundan tashqari, qin orqali tekshirishda o'sma, chandiq, jarohat, yara va boshqa o'zgarishlar aniqlanadi. Paypaslab ko'rilganda, qin shilliq pardasining g'adir-budurligi seziladi.

Differensial diagnostikada patologik jarayonning xususiyati ham muhim rol o'ynaydi. Masalan, tugunlarning klitor yuzasida g'uj-g'uj bo'lib joylashishi va nurga o'xshab tarqalgan qatorlar shaklida qin dahlizining yon tomonida joylashishi sigirlarda uchraydigan yuqumli vaginit (vestibulit) kasalligiga gumon tug'diradi.

Bachadon bo'ynini ko'zdan kechirishda uning joylashishi, shakli, katta-kichikligi va bachadon bo'yni kanali tashqi teshigining qanchalik ochiq turganligiga e'tibor beriladi.

Hayvonlarda bachadonning bo'yinchasi odatda o'rtasida teshigi bo'lgan silindrik do'mboq ko'rinishida qin bo'shlig'iga botib turadi (biyalarda 5 sm gacha, sigirlarda 2-3 sm gacha). Bachadon bo'yni ko'pincha biror tomonga, pastga yoki

yuqoriga siljigan bo'ladi, bu hamma vaqt ham patologik jarayon borligini ko'rsatmaydi. Bachadon bo'ynining kanali (qoramollarda) faqat tug'ish vaqtida, tug'ishdan keyin bir oz vaqt va kuyikish paytida ochiq turadi. Hayvon kuyikmagan paytda bachadon bo'yni kanalining ochiq turishi patologiya hisoblanadi. Bachadon bo'yni kanalidan suyuqlik kelayotgan bo'lsa, uning sababi aniqlanadi.

Rektal tekshirish bilan barcha ichki jinsiy a'zolarining holatini aniqlash mumkin. Sigirlarda qo'l to'g'ri ichakka kiritilgandan keyin avval bachadon bo'yni topiladi. Agar u kattalashgan va paypaslab ko'rilganda xamirsimon yoki juda qattiq bo'lsa, bu patologiyadan darak beradi. Keyin, qo'lni bachadon bo'ynidan oldinga surib, bachadon tanasi va shoxlari paypaslab topiladi. Ayni vaqtda bachadon shoxlarining shakli, katta-kichikligi, konsistensiyasi va simmetrikligiga e'tibor beriladi. Bundan tashqari, bachadon devorlarining yuzasi va ichidagi moddalarning sifati aniqlanadi (SHipilov V.S. va b., 1998).

Paypaslab ko'rilganda bachadonning biroz kattalashganligi (ya'ni, fluktuatsiyasi) sezilsa, mazkur hayvonning bo'g'oz yoki bo'g'oz emasligini aniqlash kerak. SHunga qarab, hayvon davolanadi yoki kasallanmagan degan xulosaga kelinadi. SHundan keyin tuxumdonlar paypaslab topiladi (tuxumdonlar bachadon shoxlarining uchida joylashgan bo'ladi). SHunda ularning kattaligi, shakli, konsistensiyasi, sezuvchanligi va yuzasining holatiga e'tibor beriladi. Tuxumdonlarning konsistensiyasi va kattaligi follikulalarning etilayotganligi yoki sariq tana hosil bo'lganligiga qarab o'zgaradi. Ana shunday fiziologik o'zgarishlar patologiyani aniqlashda hisobga olinadi.

Normal holdagi tuxum yo'llarini to'g'ri ichak orqali paypaslab topib bo'lmaydi. Tuxum yo'llari tugun-tugun, zich yoki qalqiydigan tizimchaga o'xshagan bo'lsa, bu tuxumdon naylarining o'zgarishga uchraganligini bildiradi.

Diagnoz qo'yish uchun ko'pincha anamnez, tashqi va ichki klinik tekshirish aniq ma'lumot bermaydi. Bunday hollarda diagnoz qo'yish yoki uni tasdiqlash uchun laborator tekshirish usulidan foydalaniladi.

Laborator tekshirish ma'lumotlari biror kasallikka diagnoz qo'yish uchun yordam beribgina qolmasdan, balki ba'zan kasallikning kechishi to'g'risida

ma'lumotga ega bo'lish, davolash rejasini tuzish va maqsadga muvofiq usullarni tanlashga yordam beradi.

Ginekologiya amaliyotida ham kasallik sababini aniqlash maqsadida qindagi suyuqlik holatini, bachadon va qindagi mikroorganizmlarni aniqlashga to'g'ri keladi.

Laborator tekshirishlar uchun namunalar olishdan oldin jinsiy a'zolar yuvilmaydi, siydik yo'lidan va qindan olinadigan suyuqlikni tekshirish zarur bo'lganda esa qoviqni ham bo'shatmaslik kerak, chunki suyuqliklar siydik va dezinfeksiyalovchi moddalar bilan yuvilib ketganda olingan namunada mikroorganizmlar bo'lmasligi mumkin.

Ekspress usul. Sigirlarda bachadon gipotoniyasi va endometrit kasalliklarida ekspress (Dyudenko tavsiyasi bo'yicha) usulda hayvon tuqqandan so'ng jinsiy a'zolaridan ajralayotgan loxiy va kuyikishdagi shilimshiq moddalar tarkibida indikan (bachadonning qisqarishi buzilganda) hamda endometrit kasalligidaaromatik qatorga kiruvchi zaharli moddalarning (indol, skatol va boshqalar) ko'payishini aniqlashgaasoslangan usuldir. Bu usulni bajarishda qo'lga polietilen qo'lqop kiyilib, tekshirayotgan sigirlarning qiniga yuboriladi va tuqqandan so'ng bachadondan ajralayotgan loxiy va bachadon bo'yinchasi atrofidan shilimshiq moddaolinib, bankachaga yoki probirkaga solinadi hamda idishlarga sigirlarning laqabi va tartib soni yozib qo'yiladi.

Material olingandan so'ng darhol tekshirilishi kerak, lekin uni salqin joylarda 2-3 soat mobaynida saqlash ham mumkin. Sigirlar biror nuqsonli bola tuqqanda 5-6 kundan so'ng jinsiy a'zoldan ajralayotgan loxiy va bachadon bo'yinchasi atrofidan olinadigan shilimshiq bir necha bor qochirilayotgan sigirlardan jinsiy qo'zg'alish davridaolinadi. Probirkaga 5 ml tekshirilayotgan loxiy uning ustiga 5 ml 2%-li uch xlorli sirka kislotasi eritmasidan solinib, aralashtiriladi va 3-4 daqiqadan so'ng qog'oz filtdan o'tkaziladi. So'ngra sentrifuga probirkasiga 4 ml filtrat solinib, uning ustiga 2 ml 5%-li timol eritmasidan qo'shib aralashtiriladi, keyin esa unga 6 ml reaktiv quyilib, 1 soat saqlanadi. SHundan keyin bu probirkaga etil spirtining xloroform aralashmasidan 1

ml solib, aralashtiriladi va sentrifugaga o'rnatilib, minutiga 1-2 ming marta aylanish tezligida 5 daqiqa aylantiriladi.

Reaksiyani baholash: xloroform tiniq bo'lsa (-) - bachadonning qisqarishi normaatrofida, oq pushti rang (+) - bachadonning qisqarishi qisman buzilgan, pushtirang (++) - bachadon gipotoniyasi, binafsha qizg'ish rang (+++) - bachadon gipotoniyasi yoki atoniyasi, binafsha rang (+++++) - bachadon atoniyasi deb hisoblanadi.

Bakteriologik tekshirish jinsiy a'zolaridan ajralayotgan eksudatlar tarkibida trixomonoz, vibrioz kasalliklari qo'zg'atuvchilarni hamda shartli patogen mikroorganizmlar va zamburug'larning borligini aniqlash maqsadida o'tkaziladi.

Trixomonoz qo'zg'atuvchisini topish maqsadida sigirlarning jinsiy a'zolaridan shilimshiq modda yoki yallig'lanish jarayonidan ajralayotgan eksudatdan tomchi tayyorlab tekshiriladi. Agar shilliq modda quyuk bo'lsa, uni steril fiziologik eritma bilan suyultirib yaxshilab aralashtirish mumkin.

Tekshirilayotgan tomchi mikroskopning qorong'ilashtirilgan maydonidain kichik ob'ektivda (XI20), so'ngra kattasida (x280-400) ko'rilganda harakatchan trixomandlarning xilpillovchi membranasi yaqqol ko'rinadi.

Vibrioz kasalligining qo'zg'atuvchisini aniqlashdaqindan olingan shilimshiq moddadan surtma tayyorlanadi va turli bakteriologik bo'yoqlar (korbolli, fuksin, gentsianviolet, metil ko'ki va b.) bilan bo'yaladi. Surtma mikroskop ostida immersion sistemada tekshiriladi, bunda vibrioz kasalligini qo'zg'atuvchisi vergulsimon yoki parmasimon shaklda bo'ladi.

Bepushtlikning sabablari xilma-xildir. Bepushtlik urg'ochi yoki erkak hayvonlardagi etishmovchiliklar va organizm bilan tashqi muhit o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning buzilishiga bog'liq. Urg'ochi hayvonning hayoti davomida tashqi muhitning noqulay ta'siri uni vaqtincha yoki bir umr qisir bo'lib qolishiga sabab bo'lishi mumkin.

Professor A.P.Studensov tasnifi bo'yicha sabablariga ko'ra, pushtsizlikning tug'ma, qarilik, simpotomatik, alimentar, ekspluatatsion, iqlimiy, sun'iy kabi 7 turi mavjud. Ammo amalda bu sabablar ko'proq bo'lishi ham mumkin.

Pushtsizlik hayvonning hayoti davomida orttirilishi yoki tug'ma bo'lishi mumkin. Hayotda orttirilgan sabablarga ko'ra, pushtsizlik quyidagi turlarga bo'linadi:

1. Alimentar pushtsizlik (alimentum - oziq-ovqat) hayvonni noto'g'ri oziqlantirish tufayli kelib chiqadi. Hayvonlarni noto'g'ri oziqlantirish, ularni yetarlicha oziqlantirmaslik (yem-xashak yetishmasligi - och qolishi), keragidan ortiqcha oziqlantirish (semirib ketishi) yoki ratsionda jinsiy tizim a'zolarining faoliyatiga ta'sir etuvchi muhim komponentlarning (oqsillar, uglevodlar, vitaminlar va mineral moddalar) yetarlicha bo'lmasligi qisirlikka olib kelishi mumkin. Masalan, A gipovitaminozda bachadon shilliq pardasi epiteliysida o'zgarishlar kuzatiladi; V gipovitaminozda jinsiy bezlar degenarativ o'zgarishlarga uchraydi, akobaltoz paytida ko'payish funksiyasi izdan chiqadi va h.

Hayvon yetarlicha oziqlantirilmaganda organizm zaiflashadi, bu jinsiy jarayonlarga ta'sir etadi (kuyikish va ovulyasiya bo'lmaydi). Hayvonlar oqsil, uglevod yoki yog'larga boy bir xildagi oziqalar bilan uzoq muddat boqilganda tuxumdonlar funksiyasi susayib, ularning maxsus to'qimasi asta-sekin yog' kletchatkasi bilan almashinadi. Semirib ketgan hayvonlarning tuxumdoni kichrayibgina qolmay, balki zichlashadi ham, bunda urg'ochi hayvon avvaliga qisqa muddatga kuyukadi, keyin esa butunlay kuyukmaydi (I.P.Kondraxon, 2005).

Hayvon me'yorida oziqlantirilganda ham modda almashinuvi buzilishlari kuzatilgan (oshqozon-ichak va boshqa a'zolar kasalliklarida) bo'lsa, alimentar qisirliklar kelib chiqishi mumkin.

2. Hayvonlarni noto'g'ri asrash va foydalanish oqibatidagi pushtsizlik. Hayvonlarni muntazam yayratmaslik, namlik yuqori, havosi yaxshi almashmaydigan hamda o'ta sovuq yoki issiq binolarda saqlash oziqaning yaxshi hazmlanmasligi va organizmda moddalar almashinuvini susayishiga sabab bo'ladi.

Bularning hammasi jinsiy a'zolar funksiyasini susaytiradi, bu esa jinsiy siklning me'yorida kechmasligi yoki yo'qolishiga sababchi bo'ladi.

Urg'ochi otlarni haddan tashqari ko'p ishlatish, jumladan yo'rg'a va chopqir biya zotlarini to'xtovsiz aravaga qo'shish ko'pincha jinsiy a'zolar funksiyasining susayib qolishi va qisirlikka sabab bo'ladi.

3. Urg'ochi hayvonlarni noto'g'ri urug'lantirish. Urg'ochi hayvonlarni qisir-bo'g'ozligini o'z vaqtida tekshirmaslik oqibatida kelib chiqadigan, shuningdek, erkak hayvondagi funksional etishmovchiliklarga aloqador kasallik. Hayvonlar urug'lantirilganligi hisobga olib borilmasa, erkak nasldor hayvon ortiqcha zo'riqib, jinsiy zaiflashishi mumkin.

Hayvonning kuyikkanligini o'z vaqtida aniqlamaslik va jinsiy siklni o'tkazib yuborish qisirlikka sabab bo'ladi. Urg'ochi hayvonlar voyaga etgandan keyin o'z vaqtida urug'lantirilmasa, bachadonda atrofik jarayonlar yuzaga kelib, tuxumdonlar funksiyasining buzilishiga olib keladi. Vaqtida kuyukib turadigan hayvonlarning uzoq muddat urug'lantirilmay qolishi ovulyasiya va kuyikishning bir umr yoki uzoq muddatga to'xtashiga sabab bo'ladi.

4. Jinsiy a'zolarining (ginekologik) kasalliklariga aloqador pushtsizlik. Urg'ochi va erkak hayvonlarning ko'pchilik kasalliklari oqibatida qisirlik kuzatilishi mumkin.

5. Iqlimga aloqador pushtsizlik hayvonlar iqlimi jihatidan keskin farq qiladigan bir joydan ikkinchi joyga ko'chirilganida yuzaga keladi, bunda hayvonlar yangi yashash sharoitlariga moslasha olmaydi.

6. Yaqin qon-qarindosh urug'lantirish oqibatidagi pushtsizlik.

7. Qarilikka (klimakterik) aloqador pushtsizlik. Bunda ovulyasiya to'xtaydi va hayvon kuyukmaydigan bo'lib qoladi. Klimakterik davr sigirlarda 15-20 yoshda, qo'y va echkilarda 8-9 yoshda, cho'chqalarda 6-8 yoshda, biyalarda esa 20-25 yoshda boshlanadi.

8. Pushtsizlikning immunologik sabablari. Urg'ochi hayvonning qoni va jinsiy yo'llarida doimo oz miqdorda spermatoksinlar mavjud. Ular miqdori yallig'lanish natijasida keskin ko'payadi. Bu toksinlar sifati bo'yicha har xil bo'lishi mumkin:

autospermatoksinlar, izospermatoksinlar (turiga qarashli spermiylarni o'ldiradigan), giterospermatoksinlar (boshqa turga qarashli spermiylarni o'ldiradigan), lizinlar (spermiylarni eritish) kabi xususiyatga ega bo'ladi, hamda yuborilgan spermaga mahalliy allergik reaksiya bilan javob qaytaradi.

Yuqorida aytib o'tilganidek, bepushtlik tug'ma bo'lishi ham mumkin.

Tug'ma bepushtlik: infantilizm, germafroditizm, frimartinizm va boshqa shakllarda namoyon bo'ladi.

1. Infantilizm deb, urg'ochi va erkak hayvon jinsiy a'zolarining to'liq etilmay qolishi yoki hayvon urug'lantirish yoshiga etganida jinsiy siklning bo'lmasligiga aytiladi.

2. Germafroditizm - deb bitta individning o'zida urg'ochi va erkaklik jinsiy a'zolarining bo'lishiga aytiladi. Bunday holatda jinsiy a'zolar odatda rivojlanmay qoladi. Haqiqiy germafroditizm juda kamdan-kam uchraydi.

3. Frimartinizm paytida urg'ochi hayvonning ba'zi jinsiy a'zolari rivojlanmay qolgani holda klitor haddan tashqari rivojlanib, shaklan erkaklik jinsiy a'zosiga o'xshab qoladi. Bu patologiya asosan, sigirlar har xil jinsli egizak tuqqanida urg'ochi buzoqda kuzatiladi.

Jinsiy a'zolarining boshqa anomaliyalari bachadon bo'yni yoki kanalining bo'lmasligi, qinning qisman yoki butunlay bitib qolishi va boshqa turlarda bo'ladi.

Simptomatik pushtsizlikga yuqumsiz, yuqumli va invazion kasalliklar sabab bo'lishi mumkin. Bular orasida akusher-ginekologik kasalliklar (tuxumdon, tuxum yo'llari, bachadon, qin, elin kasalliklari) katta salmoqqa ega va nasilsiz hayvonlarning 15 - 35 foizini tashkil etadi. Natijada, tuxumdon vazifasi buziladi, bachadon qisqarmaydi, undagi muxit o'zgaradi va spermatozoidlarning yashashi hamda harakati uchun sharoit bo'lmaydi. Nasilsizlikni yuzaga keltiruvchi sabablar jinsiy siklning buzilishi, nimfomoniya, tuxum xujayrasi va zigotaning o'lishi, tuxum yo'lining torayishi yoki yopilib qolishi natijasida zigotaning bachadonga tushmasligi va boshqalar bo'lishi mumkin.

Pushtsizlikka sabab bo'ladigan ginekologik kasalliklar orasida jinsiy a'zoldagi yallig'lanish jarayonlari katta salmoqqa ega. Bu kasalliklar ko'pincha

surunkali kechadi va jinsiy a'zolarining morfologik o'zgarishlari hamda funksional kamchiliklari bilan birga davom etib, hayvonni vaqtincha yoki doimiy pushtsizligiga sabab bo'ladi, organizmning umumiy holatiga ta'sir etadi va ayrim hollarda o'limiga sabab bo'ladi.

1.2. Fermer xo'jaliklari sharoitida sigirlarda bachadon kasalliklarining etiopatogenezi va diagnostikasi.

Ko'p bolali egizlik, homila oldi suyuqligining haddan tashqari ko'p bo'lishi, homilaning juda katta bo'lishi, gipofiz bezi orqa bo'lagi va yo'ldoshning funksional etishmovchiliklari bachadon subinvalyutsiyasining sabablari bo'lishi mumkin. Kasallikning ikkilamchi sabablari bo'g'oz hayvonga matsionning etarli bo'lmasligi, noto'g'ri ishlatish, bir tomonlama oziqlantirish, etarlicha oziqlantirmaslik, ratsionda vitaminlar va mineral moddalarning etishmasligi hisoblanadi. Hayvonlarni noto'g'ri asrash va parvarishlash, oziqalar tarkibida vitaminlar va mineral moddalar etishmasligi va matsionning etarlicha bo'lmasligi oqibatida ko'pincha bachadonning involyusiyasi (subinvalyutsiya) sekinlashadi. Patologik tug'ishlarda bachadonning jarohatlanishi, ajralmay qolgan homila pardalarining chirishi, bachadon involyusiyasining sekinlik bilan (bachadon atoniyasi) kechishi endometritga sabab bo'ladi.

Bachadon shilliq pardasi ko'pincha mikroorganizmlarning (streptokokk, stafilokokk, ichak tayoqchasi va b.) qindan yoki qon tomirlari orqali o'tishidan yallig'lanishi mumkin.

Patologik tug'ishlarda bachadonning jarohatlanishi, ajralmay qolgan homila pardalarining chirishi, bachadon involyusiyasining sekinlik bilan (bachadon atoniyasi) kechishi endometritga sabab bo'ladi. Hayvonlarni noto'g'ri asrash va parvarishlash, oziqalar tarkibida vitaminlar va mineral moddalar etishmasligi va matsionning etarlicha bo'lmasligi oqibatida ko'pincha bachadonning involyusiyasi (subinvalyutsiya) sekinlashadi.

Hayvonni sun'iy urug'lantirishda aseptika va antiseptika qoidalariga rioya qilinmasligi, shuningdek, kasal hayvonlarni urug'lantirgan erkak hayvon urug'lantirganda ham jinsiy yo'llarga infeksiya tushishi mumkin.

I.S.Koba (2009) ma'lumotlariga ko'ra, sigirlarning ginekologik kasalliklari orasida o'tkir endometritlar keng tarqalgan kasalliklardan biri bo'lib, tuqqan sigirlarning o'rtacha 46,0 foizida qayd etiladi. Yangi tuqqan sigirlarda bachadonni yallig'lanishlarining turlari quyidagicha uchraydi: kataral endometrit - 20,9%; kataral-yiringli - 60,0%; fibrinoz endometrit - 12,1%; nekrotik endometritlar - 6,9% sigirlarda qayd etilgan.

Bachadonning subinvalyutsiyasi oqibatidagi sigirlarning o'tkir endometritlari yilning fasllari bo'yicha o'rganilganda qish-erta bohor fasllarida 67,3%, yoz faslida esa 21,9% sigirlarda qayd etilgan. Oqibatda sigirlarning otalanishi o'rtacha 47 kunga kechikkan, otalanish indeksining 1,2 martaga ko'payishi kuzatilgan. Kasallangan sigirlarda tuqqandan keyin otalanish muddati o'rtacha 156 kunni tashkil etib, sog'lom sigirlarga nisbatan 87 kunga ko'p bo'lgan.

Sigirlar ratsionning asosiy qismini tashkil etadigan paxta sheluxasi va shroti tarkibida hazmlanuvchi proteinning ko'p bo'lishi (o'rtacha 17-54%) bilan bir qatorda bu oziqalar tarkibida hayvonlar uchun zaharli hisoblangan gossipol alkaloidining konsentratsiyasi 1 kg quruq moddada 0.020-0,046% gacha etishi mumkin. Shuning uchun hayvonlarga uzoq muddat paxta sheluxasi va shroti berilishi ularning zaharlanishi hamda bepustliklariga sabab bo'ladi (Q.N.Norboev va b., 2007).

Bachadon shilliq pardasining yallig'lanishi tashqaridan qaraganda mahalliy jarayon tarzida o'tadi. Lekin organizm rezistentligining pasayishi, qon va limfa tizimiga mikroorganizmlar tushganda umumiy kasallik - sepsis (septitsemiya, piemiya) vujudga keladi.

Vaginal tekshirishda bachadon bo'ynining shilliq pardasi tiqinga o'xshab do'ppayib turadi, qizargan va bir oz bo'rtgan bo'ladi, bachadon bo'yni kanali ochiq turadi, qin tubida ekssudat to'planib turadi. Kataral endometritda ekssudat xira, kul

rang va yopishqoq, yiringli endometritda esa sarg'ish rangli, ba'zan qo'lansa hidli bo'ladi.

Surunkali endometritlarning diagnostikasi. Sigirlar odatdagicha kuyukib turgani bilan qisir qolishiga, shuningdek, hayvon kuyukkan davrda jinsiy yo'llardan ko'p miqdorda yiring aralash loyqa shilimshiq suyuqlik oqishi diagnoz uchun asos bo'ladi.

Biyalarda bu kasallik to'g'ri ichak orqali tekshirish bilan aniqlanadi. Bunda bachadon tanasining yoki ko'pincha ikkala shoxining hamma joyida yoki qisman qalinlashganligi topiladi, ular qo'lga zichlashgan, atoniya holida seziladi, ba'zan hayvonda og'riq sezish kuzatiladi.

Surunkali kataral endrometrit diagnostikasi. Sigirlarda to'g'ri ichak orqali tekshirishda ko'pincha bachadon shoxlarining assimetriyasi va uning biroz kattalashganligi aniqlanadi. Ba'zan bachadon devorining ba'zi joylarida tebranib turadigan to'plamlarini (kista) topsa bo'ladi. Bachadon devorlari va tuxum yo'llarida qotib qolgan, tugunchalarga o'xshagan qalin tortgan joylar bo'lsa, tuberkulyoz to'pchalari bor deb gumon qilishga asos bo'ladi. Bunday hollarda bachadon suyuqligi bakteriologik tekshirishdan o'tkazib, sil tayoqchalari bor-yo'qligini aniqlash kerak.

Biyalarda to'g'ri ichak orqali tekshirishda bachadon yumshoq xamirsimon konsistensiyada qo'lga seziladi, shu bilan bir vaqtda tanasi, ba'zan esa shoxlari ham me'yoriga nisbatan 2 baravar kattalashgan bo'ladi.

Kataral endometritni ba'zan to'g'ri ichak orqali tekshirish bilan aniqlab bo'lmaydi. Qin orqali tekshirishda bachadon bo'yni kanalining ochiq turganligi va undan biroz miqdorda tiniq shilimshiq oqayotganligi, bachadon shilliq pardasining biroz shishganligi va qizarganligi aniqlanadi.

Surunkali yiringli-kataral endometritda diagnoz to'g'ri ichak orqali tekshirishda bachadon shoxlaridan biri yoki ikkalasining kattalashib qolgani topiladi, shu bilan birga ular paypaslanganda konsistentligi yumshoq bo'ladi. Bachadon silida (sigirlarda) uning devorlarida tugunchalar qo'lga seziladi.

Tuxumdonlarda ko‘pincha so‘rilmay qolgan sariq tana, ba‘zan ikkala tuxumdonda ham bo‘ladi.

Qin orqali tekshirishda burtib turgan bachadon bo‘yni shilliq pardasining kuchli giperemiyasi va yiring aralash shilimshiq bilan qoplanganligi aniqlanadi. Bachadon bo‘yni qin qismidagi shilliq pardaning burmalarida ba‘zan polip o‘smalari uchraydi. Bachadon bo‘yni shilliq pardasining shishi va burmalarining ko‘tarilishi sigirlarda bachadon bo‘yni kanalining juda torayib qolishiga sabab bo‘lishi mumkin. Kasallik surunkali tus olganda yiringli-kataral endometrit bilan og‘rigan ba‘zi hayvonlar davolashdan keyin ham qisir qolishi mumkin.

Tuxumdonda sariq tana bo‘lsa hayvon umuman kuyga kelmaydi (anafrodiziya). Tuxumdonlarning follikulyar kistasida hayvonning kuyikishi juda tez o‘tadi va takrorlanib turadi (nimfomaniya).

I.S.Koba (2009) ma‘lumotlariga ko‘ra, tuqqandan keyin o‘tkir endometrit bilan kasallangan sigirlar bachadonidan olingan suyuqlik tarkibidagi mikrofloralar o‘rganilganda, zamburug‘larning mikroorganizmlar bilan quyidagi asotsiatsiyalari ajratilgan: Str. pyogenes + P. vulgaris + Candidaalbicans - 22,8%, Staph. aureus + E. coli + Candidaalbicans - 22,8%, Staph. aureus + P. mirabilis + Candidaalbicans - 20%, E. coli + P. mirabilis + Candidaalbicans - 11,4%, E. coli + P. vulgaris + Candidaalbicans + Aspergillusfumigatus - 8,5%, Staph. aureus + E. coli + Candidaalbicans + Aspergillusfumigatus - 8,5%, Staph. aureus + P. mirabilis + E. coli + Candidaalbicans + Aspergillusfumigatus + Mucorracemosus - 5,7%.

O‘tkir endometrit bilan sigirlarning kasallanishi tuqqandan keyingi 1-8 sutkaga, bachadon subinvalyusiyasi rivojlanganda 9-14 kunlarida qayd etilgan.

Surunkali yiringli endometrit ko‘pincha sigirlarda va ba‘zan boshqa hayvonlarda uchraydi. Surunkali yiringli endometritning uch shakli farqlanadi.

Birinchi shakli «oqma» deb ataladi va bachadon bo‘yni kanali ochiq turganligi sababli doimo yiringli ekssudat chiqib turadi. Kasallikning bu turi bachadon involyusiyasining sekinlashishi tufayli kelib chiqadi.

Ikkinchi turida jinsiy yo‘llardan vaqti-vaqti bilan yiringli ekssudat ajralib turadi. Bunga bachadon shilliq pardasining shishib ketishi va bo‘yni kanalining

vaqtincha bekilib qolishi va bachadon devori muskullari tonusining pasayishi sabab bo'ladi. Yiringli ekssudat bachadon bo'shlig'ida to'planib boradi va hayvon tanasining vaziyatini o'zgartirganidagina (masalan yotganda) qin orqali oqib chiqadi.

Uchinchi shaklida bachadon bo'yni kanali zich bekilib turgani uchun yiringli ekssudat bachadondan tashqariga oqib chiqmaydi. Endometritning bu turi hayvonda trixomonoz yoki homilani rivojlanishining ilk davrida o'lib qolishi paytlarida vujudga keladi.

Surunkali yiringli endometritlarning diagnostikasi. Oqma shaklida ba'zan qo'lansa hidli chirigan ekssudat jinsiy lablar atrofidagi teri va dumning ichki yuzasini ifloslantirib turadi. Kasal hayvon to'g'ri ichak orqali tekshirilganda etarli qisqarmagan va zich bo'lib turgan bachadon topiladi.

Qin orqali tekshirishda bachadon bo'yni kanalining ochiq turganligi va undan yiringli ekssudat kelayotgani ma'lum bo'ladi. Tiqinga o'xshash bo'rtib chiqib turgan bachadon bo'yni shishgan va qizargan. Qinda hamisha yiringli ekssudat bo'lib, mikroskopda tekshirib ko'rilganda streptokokk va diplokokklar topiladi. Piometrada hayvonning kuyga kelmasligi va jinsiy yo'llardan vaqti-vaqti bilan yiringli ekssudat oqishi asosiy belgi hisoblanadi.

To'g'ri ichak orqali tekshirishda bachadonning juda kattalashganligi aniqlanadi, paypaslanganda uning fluktuatsiyasi seziladi. Piometrada bachadonning bunday holatda bo'lishini bo'g'ozlik bilan adashtirish mumkin, chunki piometra va 3-5 oylik bo'g'ozlikda bachadonning kattaligi bir xilda bo'lishi mumkin. Piometrada bachadon shoxlari bir xilda kattalashadi. Ba'zan uning ichida matseratsiyalangan homila bo'lganda bitta shoxi ikkinchisidan kattalashadi. Bunday hollarda ayrim suyaklarni paypaslab topilishi diagnoz qo'yishga imkon beradi.

Sigirlarda piometra paytida bachadonni uncha qisqarmasligi, devorlarining qalin tortganligi, bachadon o'rta arteriyalari diametrining kichikligi va karunkulalarning kattalashmay qolganligiga qarab, bo'g'ozlik holatidan farqlanadi.

Qin orqali tekshirishda qin va bachadon bo'ynining tiqinga o'xshab, bo'rtib chiqqan qismining o'zgarmaganligi, qin shilliq pardasining yopishqoq shilimshiq bilan qoplangan xarakterli bo'ladi.

Parametrit odatda bachadonning o'tkir yallig'lanishi natijasida, ba'zan yallig'lanishning ichak va qorin pardasidan o'tishi natijasida vujudga keladi. Mikroorganizmlar bachadondan asosan qon va limfa yo'llari orqali atrof to'qimalarga o'tadi. Ko'pincha abscesslar paydo bo'ladi.

Sigirlarning tuqqandan keyin o'tkir endometrit bilan kasallanishiga organizmda immun tizimni zaiflashuvi, oqibatda qondagi leykotsitlarni $2,1 \times 10^{12}/l$ va limfotsitlarni 4,1% ga ortishi, segmentyadroli neytrofillar sonining 7% ga kamayishi, neytrofillar fagotsitar faolligi va fagotsitar sonining o'rtacha 15,9 va 0,9% ga kamayishi, hamda T va V - limfotsitlarni 13,8 va 11,6 foizga kamayishi xarakterli bo'lgan (Internet ma'lumoti, №34, 35).

I.S.Koba (2009) ma'lumotlariga ko'ra, sigirlarning o'tkir endometritlar bilan kasallanishida ikkilamchi omillar faol matsionning etishmasligi, hisoblanadi chunki sigirlar uzoq muddat bir joyda saqlanganda faqatgina 36,4% sigirlarda tuqqandan keyingi davrning me'yorida kechishi kuzatilgan bo'lsa, sigirlarning 40 foizida bachadonning turli darajada yallig'lanishlari qayd etilgan. SHundan 50% sigirlarda o'tkir endometrit, 28,5% sigirda tuxumdonlar funksiyasining buzilishlari kuzatilgan.

1.3. Sigirlarda bachadon kasalliklarini, bachadon subinvalyutsiyasini davolash va oldini olish.

Bachadon subinvalyutsiyasi bilan kasallangan hayvonga bachadonni qisqarishini kuchaytiruvchi dorilar (oksitotsin, pituitrin, sinestrol) tavsiya etiladi, bachadon to'g'ri ichak orqali massaj qilinadi. Autogemoterapiya, qinni sovuq eritmalar bilan yuvish, faradizatsiya tavsiya etiladi. Bachadonga homila oldi suyuqligidan 3-5 kun davomida 2 litrdan yuborish (N.A.Flegmatov), homila oldi suyuqligidan ajratilgan – “amnistrin” preparatidan muskul orasiga 2 ml yuborish, novokainoterapiya va faol matsion yaxshi natija beradi.

V.A.CHirkov ma'lumotlariga ko'ra, bachadonda kichik chastotali modullashtirilgan impulslar yordamida elektrostimulash o'tkazish yaxshi natija beradi. Seans boshlanishidan 15 daqiqa o'tgach qondagi serotonin va gistamin biologik moddalarining konsentratsiyasi ortib, bachadonni qisqarishlarini kuchaytiradi. Endometritlarining rivojlanishini oldini olish maqsadida hayvonning o'zidan olingan uviz sutidan 20 ml teri ostiga yoki aorta qon tomiriga 1%-li novokain eritmasidan 100 ml (2 mg/kg dozada) D.D.Logvinov usulida yuboriladi. Eritma 48 soatdan keyin qayta yuboriladi.

Sigirlarda bachadon kasalliklarini davolashning barcha usullari veterinariya-sanitariya hamda zootexnika qoidalariga, ya'ni sifatli oziqlar bilan oziqlantirish, quruq, toza molxonalarda asrash, kasallikning kechishiga ko'ra, belgilangan ratsionda boqish va boshqa gigiena talablariga to'la amal qilgan holda olib borilishi kerak.

Biologik va farmakologik dorilar bachadonga, teri ostiga, muskul orasiga, qon tomirlariga yuborilib, ko'pincha ular etiotrop ta'sirga ega preparatlar hisoblanadi. Bu dorilar mahalliy, ya'ni qinga va bachadon bo'yinchasiga yuborilishi, bachadonga quyilishi ham mumkin yoki doka tamponlar bu dorilar bilan namlanib, yallig'langan joyga ishlatiladi.

Qin va bachadonni yuvishdakuchsiz antiseptik eritmalaridan u erdagi eksudatlarni tashqariga chiqarish uchun foydalaniladi. Eritmalar ko'pincha suyuqlik ikkiyoqlama oqadigan kateter yordamida iliq holda yuboriladi.

Sigirni stanokka kiritib, eritma solingan idish maxsus tergakka quyiladi va undagi eritmadan asta-sekinlik bilan qinga 20-30 l quyiladi. Sigirlarni piometrit, gidrometrit kasalliklarida bachadon bo'shlig'ida to'plangan ekssudatni yuvib chiqarish uchun o'rta tuzlarning 2-10%-li eritmasidan foydalaniladi. Bachadonga yuborilgan suyuqlik massaj orqali to'la chiqarib olinadi. Bundan keyin qinning bachadon bo'yinchasiga yaqin tomoniga davolovchi eritmalar shimdirilgan, emulsiyalar surtilgan, poroshok sepilgan paxta yoki doka-paxtali tamponlar qo'yiladi. Bunday tamponlar bachadon bo'yinchasi yallig'langanda ham ishlatiladi.

Internet ma'lumotlarida (2011) sigirlarda ginekologik kasalliklarni davolashda maxsus «qinni ochish moslamasi» dan foydalanish tavsiya etiladi.

Bachadonga dorilarni qo'yishda asseptik eritmalardan kamroq foydalaniladi; ulardan 500 ml gacha yuborish mumkin. Odatda, bachadonga turli suspenziyalar, moyli asosda (baliq, vazelin moylari) tayyorlangan emulsiyalar yuboriladi, 5%-li tritsillin suspenziyasi, 5%-li yodvismutsulfamid suspenziyasi, ginekologik (furazolidonli, furaginli xinozolli va boshqalar) suppozitorlar, 2,5%-li furagin va 5%-li furazilidon, o'zimizda va chet elda tayyorlangan patentli dorilar, tarkibida nitrafuranlar saqlovchi dorilar va antibiotiklar (ekzuter, septometrin, tribressin, uterosan va boshqa) dorilardan foydalaniladi.

Bu dorilar bachadonga yuborilganda ko'pik hosil qiladi, bu dorini bachadonning barcha qismiga oson o'tishiga yordam beradi. Dorilarning yuborish miqdori 50-100 ml yoki 2-5 kapsula yoki tayoqcha hisobida bo'ladi. Bu usul bilan birgalikda bachadon muskullarning qisqarishini oshiradigan (ayniqsa, uni atoniyasi va gipotaniyasida) dorilarni parentirial yuborib davolash ham maqsadga muvofiqdir - bu borada muskul orasiga oksitotsin va pituitrindan (30-40 TB) 1%-li brevikolin eritmasidan (10 ml), teri ostiga prozerinning 0,5%-li (2-3 ml) sinestrolning 1%-li eritmasini (2-4 ml) qo'llash mumkin. Bachadonning qisqarishini kuchaytirish uchun 7 yoki 10%-li ixtiolning 40%-li glukozadagi yoki fiziologik eritmadagi eritmasi 15-20 ml miqdorida, steril og'iz suti 20-30 ml miqdorida har 48 soat oralab 2-3 marotaba yuborilishi mumkin. SHuningdek, trivitamin, tetravit ham 5-10 ml miqdorida har 48 soat oralab, 2-3 marta teri ostiga yuboriladi.

Lekin davolash natijasining ijobiy bo'lishini ta'minlash maqsadida, avvalo bachadondagi ekssudat tarkibidagi mikroorganizmlar turi va ularning dorilarga bo'lgan chidamliligini aniqlash lozim.

Fizikaviy davolash usullariga uqalash, shifobaxsh loylar va elektr bilan davolash usullari kiradi. Uqalash uchun to'g'ri ichakka yuborilgan qo'l barmoqlari yordamida bachadonning shoxlari va tuxumdonlar massaj qilinadi.

Shifobaxsh loylar bilan davolashda turli tarkibdagi loylardan foydalaniladi. SHifobaxsh loylar dastlab qaynatilib sterillangan bo‘lib, u qinga maxsus shprits yoki sun‘iy qinda ishlatiladigan rezina kamera orqali yuboriladi.

Elektr bilan davolash endometritlarning turli shakllarida qo‘llaniladigan bachadon bo‘yinchasini stimullaydigan elektrostimul-yatorlar yordamida o‘tkaziladi.

To‘qimalardan tayyorlangan dorilar bilan davolashda jigar, taloq va boshqalardan tayyorlangan dorilardan teri ostiga 10-20 ml yuboriladi. SHuningdek, jigar-yo‘ldosh aralashmasi ham qo‘llaniladi. Dorilar 2-5 marta har 5-7 kun oralig‘ida ishlatiladi.

Autogemoterapiyada - autokson 60-100 ml miqdorida har 3-4 kun oralatib yuboriladi.

Novokainli blokadalar o‘tkazish. Morozov usuli bo‘yicha buyrak oldi noaokainli blokadasini o‘tkazishda 0,2%-li novokain eritmasi (sigirlarga 300-350 ml, g‘unojinlarga 200 ml miqdorida) bel umurtqasining o‘ng tomonidagi ikkinchi va uchinchi ko‘ndalang qovurg‘asimon o‘simtasidan 8-9 sm pastdan uzunasiga o‘tadigan chiziq bo‘lib yuboriladi.

O‘tkir endometritlarni davolash. Endometrit bilan og‘rigan hayvonlarga antibiotikoterapiya (penitsillin, streptomitsin, biomitsin, tetratsiklin, eritromitsin va boshqalar) tavsiya etiladi. Penitsillin ko‘pincha streptomitsin va boshqa antibiotiklar bilan birgalikda qo‘llaniladi. Penitsillin dozalari (1 kg tana vazniga ming TB hisobida): otlarga - 1-2, qoramollarga - 2-3, qo‘ylarga - 4-10, cho‘chqalarga - 2-3 hisobida muskul orasiga yuboriladi. Streptomitsinning o‘rtacha sutkalik dozasi qoramol uchun - 2-4 mln TB (5 ming TB/kg dozada kuniga ikki mahal). Kasal hayvonning ahvoliga qarab, har 3-6 soatda 1 marta in‘eksiya qilinadi.

Antibiotiklar odatda hayvon sog‘ayib, tana harorati me‘yoriga kelganidan keyin ham 3-4 kun davomida qo‘llaniladi. Antibiotiklar bachadon ichiga ham yuboriladi.

Mikroorganizmlar antibiotiklarga chidamli bo'lsa, sulfanilamid preparatlaridan sulfidin, sulfazol, sulfatsil va norsulfazol kabilarni ishlatish kerak. Bu preparatlar 2-3 kun davomida kuniga 1-2 marta qo'llanadi.

O'tkir endometritlarda umumiy davolash bilan birga bachadon qisqarishini kuchaytirish va bachadon bo'shlig'ini ekssudatdan bo'shatishga qaratilgan davolash tadbirlarini ham ko'rish zarur. Bachadonni yuvib, ekssudatni chiqarib tashlash yaxshi samara beradi.

Bachadonni yuvish uchun quyidagi eritmalar: rivanol, xinozol, tripaflavin yoki akriflavin eritmaları (1:1000), kaliy permanganat eritmasi (1:10000), soda eritmasi (1-2%-li), osh tuzi (1 va 3-10%-li), sut kislotasi (0,5%-li), borat kislotasi (2-3%-li), ixtiol (3%-li), tanin eritmasi (0,5%-li) va boshqalar 40°S gacha iliq holda ishlatiladi.

Yuvish bachadondan eritma rangidagi suyuqlik oqib chiqquncha davom ettiriladi. Bir marta yuvish uchun yallig'lanish jarayonining turi va darajasiga ko'ra, 2 l dan 10 l gacha dezinfeksiyalovchi eritma ishlatiladi (Internet ma'lumoti, №33, 35).

Bachadonda ekssudatning to'planishiga qarab, har kuni yoki kun ora yuviladi. Ajratmalar ancha kamayib qolgandan keyin uch-to'rt kunda bir marta yuvilsa bo'ladi. Yuvish vaqtida yuborilgan eritmaning hammasini bachadondan chiqarib tashlash zarur. Bachadonni yuvishdan oldin irigator yoki maxsus nasos bilan yallig'lanish ekssudatini tortib olish tavsiya etiladi.

I.S.Koba (2001) ma'lumotlariga ko'ra, bakterial-mikozli xarakterdagi o'tkir endometritlarni davolashda fupedin, bromatsid va endoton preparatlari kompleks davolash xususiyatiga ega bo'lib (antimikrob, yallig'lanishga qarshi, regenerativ jarayonlarni stimullovchi, uterotonik), ularni qo'llashning terapevtik samaradorligi yuqori hisoblanadi. Tug'ruqdan keyingi o'tkir endometritlarni davolashda puedinni qo'llashning terapevtik samaradorligi 90,3%, endotonda -90%, bromatsidda - 88,9% ni tashkil etgan. Ya'ni boshqa davolovchi vositalarga nisbatan 11,8-20% ga yuqori bo'lgan. Bu preparatlarning zaharlilik darajasi ham boshqa analoglariga

nisbatan past hamda organizmdan tezda chiqarilib ketadi, shuning uchun sut bilan uzoq vaqtgacha ajralib turmaydi.

Endometritlarni davolash uchun gormonal va neyrotrop preparatlar: sinestrol, stilbestrol, karboxolin, prozerin va boshqalar ishlatiladi. Sinestrolning o'simlik moyi yoki spirtidagi 1%-li eritmasi 3-5 ml yoki 1,5-2,5 ml stilbestrol 24 soat oralatib 3-4 marta teri ostiga yuboriladi. Neytrotrop preparatlar (0,1%-li karboxolin 2-3; 0,5%-li prozerin 2-3 ml) teri ostiga yuboriladi.

Surunkali endometritlarni davolash. Hayvonni etarlicha oziqlantirish va parvarishlash, yayratish tavsiya etiladi. Davolashda bachadon massaj qilinadi va qin orqali 3-4 l dezinfeksiyalovchi eritmalar bilan (harorati 42-43°S bo'ladi) har 1-3 kunda bir marta, kamida 4-5 marta vanna qilinadi.

Hayvonni urug'lantirishdan bir necha soat ilgari bachadonni 0,9%-li natriy xlorid (40-42°S) eritmasi bilan yoki tuz-soda-qand eritmasi bilan (100 ml distillangan suvga 1,0 natriy xlorid, 3,0 natriy bikarbonat va 90,0 qand) yuvib, keyin massaj qilish tavsiya etiladi (A.Yu.Tarasevich, 2003). Bu eritmadan bachadonga 250-500 ml gacha yuborish kerak.

Bachadon bo'yni etarlicha ochiq bo'lgan taqdirdagina bachadonni yuvish mumkin. Eritmani bachadonga kiritishni iloji bo'lmasa, shu eritmada qinni yuvish bilan kifoyalaniladi, bachadon bo'ynini zo'rlab ochish yaramaydi. Vannalar bilan bir qatorda autogemoterapiya ham yaxshi natija beradi (3-4 kun oralatib, ikki marta).

Davolashda teri ostiga sinestrolning 1%-li yog'li yoki spirtli eritmasidan 3-5 ml har 24 soatda bir marta, jami 3-4 marta yuboriladi; stilbestrol 1,5-2,5 ml dan ishlatiladi (0,005%-li eritmasi). Estrogen gormonlar bilan bir paytda karboxolinni qo'llash ham sigirlarda yaxshi natija beradi. Bunda teri ostiga sinestrolning 1%-li yog'li eritmasi (3-5 ml), 2 soatdan keyin esa karboxolinning 0,1%-li suvdagi eritmasidan 2-3 ml yuboriladi. Bu preparatlar kunora, jami uch marta qo'llaniladi.

Surunkali kataral endometritlarni davolash. Kasal hayvonlarni avvalo to'la qimmatli oziqalar bilan etarlicha ta'minlash kerak. Davolashda xuddi o'tkir

endometritdagidek bachadon dezinfeksiyalovchi eritmalar bilan yuviladi. Eritmalar issiq (42-43°S) holda bo'lishi kerak.

Natriy xloridning suvdagi eritmasi bilan endometritni davolash yaxshi natija beradi. Mazkur eritma bilan yuvish shilliq pardani anchaga ta'sirlantiradi va bachadondagi hamma nerv-muskul apparatini qo'zg'atadi. Eritma distillangan yoki qaynatilgan suvda tayyorlanadi. Eritma konsentratsiyasi bachadonda chiqadigan ekssudatning miqdori va sifatiga qarab, har xil bo'ladi. Dastlabki yuvish uchun 5-7%-li eritmalar ishlatilsa, ekssudatlar kamayib qolganidan keyin 2-4%-li eritmalar ishlatiladi va hokazo. Davolashning oxiriga kelib, natriy xloridning 1%-li eritmasi yoki yaxshisi tuz-soda-qand eritmasi ishlatiladi. Yuvish uchun 2-3 l eritma kerak bo'ladi, ekssudat ko'p miqdorda chiqayotgan bo'lsa, bachadonni ko'proq yuvib turishi lozim.

Bachadon yuvilganidan keyin 10-15 daqiqa o'tgach, eritma qoldig'ini va undagi patologik mahsulotlarni bachadondan chiqarib tashlash kerak. Buning uchun bachadonni har 1-2 kunda to'g'ri ichak orqali massaj qilib turish lozim.

Bundan tashqari, sinestrol yoki stilbestrolning 1%-li eritmasi har 24 soatda bir marta, jami 3-5 marta teri ostiga yuboriladi. Antibiotiklar, sulfanilamid preparatlari va organizmning umumiy tonusini hamda mahalliy va umumiy himoya kuchlarini oshiradigan boshqa shifobaxsh moddalar ishlatiladi.

Surunkali yiringli endometritlarni davolash. Kasallikning boshlang'ich davrida xuddi yiringli-kataral endometritdagidek bachadonni yuvish va massaj qilish kerak. Bundan tashqari, tuxumdonda sariq tana saqlanib qolgan bo'lsa, tegishli operatsiya qilinadi.

Kasallik surunkali kechganda bachadonni bir marta Lyugol eritmasi bilan yuvish zarur (A.Yu.Tarasevich). Bachadonga 100-200 ml Lyugol eritmasi (kristall yod 1,0, kaliy yodid - 2,0 va suv - 100,0) yuborishdan oldin bachadon bo'yni kanalini quruq steril tampon bilan artib, borli vazelin surtish lozim. Eritma bachadonda 10-15 daqiqa turgach, keyin to'g'ri ichak orqali massaj qilinib, tashqariga chiqarib tashlanadi. Ikkinchi kundan boshlab bachadon osh tuzining gipertonik eritmasi bilan yuviladi. Bachadon dastlab, 10%-li eritma bilan bir-ikki

marta yuviladi, keyin eritmaning konsentratsiyasi asta-sekin kamaytirilib boradi va oxiri bachadon tuz-soda-qand eritmasi bilan yuviladi.

Piometrada xirurgik yo‘l bilan davolanadi. Bachadon bo‘ynining kanali yopiq bo‘lsa, barmoqlarni parmasimon harakatlantirish bilan uni ochish kerak. Keyin bachadon bo‘shlig‘i natriy xloridning izotonik eritmasi bilan yuvilib, undagi yiringli ekssudat chiqarib tashlanadi. SHundan keyin 100-200 ml Lyugol eritmasi yuborilib, 5 daqiqadan keyin bachadon to‘g‘ri ichak orqali massaj qilinadi. Keyingi kunlarda bachadon tuz eritmalari bilan yuviladi.

I.S.Koba (2009) sigirlarda o‘tkir endometritlarni oldini olish uchun o‘z vaqtida akusher-ginekologik dispanserlash o‘tkazish orqali kasal hayvonlarni aniqlash, ularni alohida xonalarga ajratish, tug‘ruqxonalarda gigiena-sanitariya qoidalariga rioya qilinishi, tug‘ishda aseptika-antiseptika qoidalariga rioya etilishi, faol matsion tashkil etilishi, patologik tug‘ishlarda akusherlik yordami ko‘rsatishni to‘g‘ri tashkil etish kabi profilaktik tadbirlarni bajarilishi lozimligini ta’kidlaydi

Bachadon kasalliklarini oldini olish uchun har bir xo‘jalikda quyidagi umumiy xo‘jalik - zooveterinariya chora-tadbirlarni o‘tkazish lozim:

Hayvonlarni to‘g‘ri oziqlantirish. Hayvonlarni to‘yimli oziqlar bilan oziqlantirmaslik, matsionning etarli bo‘lmasligi, molxonalarda antisanitariya sharoitlari bachadon kasalliklarining asosiy sabablaridan biri hisoblanadi. SHuni eslatib o‘tish kerakki, qish va bahorda to‘liq oziqlantirilmagan sigirlarning 50 foizida yozgi paytda ham moddalar almashinuvi darajasi tiklanmaydi. SHuning uchun har bir xo‘jalikda etarli em-xashak bazasini yaratish, hayvonlarning yoshi, tana vazni, fiziologik holati va mahsuldorligiga qarab, me’yordagi em-xashak bilan ta’minlash zarur (Kondraxon I.P., Levchenko V.I., 2005).

Moddalar almashinuvi darajasini nazorat qilish va oziqlantirishni tartibga solish maqsadida vaqti-vaqti bilan ayniqsa, qish va bahor oylarida sigir va g‘unojinlar qonidagi kalsiy, fosfor, karotin, oqsil va zahira ishqoriylik darajasini tekshirib turish lozim.

Ratsionda vitaminlar etishmaganda ularning preparatlari ratsionga kiritiladi. Vitaminlarning preparatlari bo‘g‘oz sigirlarga har 3-5 kunda bir marta,

jami 5 marta quyidagi miqdorda muskul orasiga in'eksiya qilinadi: A vitamini -200 ming HB, D vitamini -5 ming HB, E vitamini -10 mg. Ularning trivit, tetravit, tetramag kabikompleks preparatlaridan bir boshga 5-10 ml, har 10 kunda bir marta muskul orasiga in'eksiya qilinishi ham mumkin.

Moddalar almashinuvini yaxshilanish, yo'ldoshni ushlanib qolishi va buzoqlarda dispepsiya kasalligining oldini olish uchun bo'g'oz sigirlarning tug'ishiga 25 kun qolganda silos, senaj kabi oziqalarni ratsiondan chiqarish va o'rniga 8-10 kg yarim qand lavlagi kiritish lozim. Bo'g'oz sigirlar ratsionida 100 g oqsilga 80-150 g uglevod to'g'ri kelishini ta'minlash lozim (Q.N.Norboev va b., 2007).

I.S.Koba (2009) ma'lumotlariga ko'ra, sigirlarning o'tkar endometritlar bilan kasallanishi tuqqandan keyingi davrda bachadon shilliq pardasida endo- va ekzogen xarakterdagi shartli patogen mikroorganizmlarning rivojlanishi oqibatida kuzatilib, sigirlarning o'tkar endometritlar bilan kasallanishi barcha davlatlarda qayd etiladi.

Sigirlarning o'tkar endometritlar bilan kasallanishida oziqlantirish va ularni bo'g'ozligida parvarishlashdagi etishmovchiliklar, modda almashinuvlarining buzilishi, organizm rezistentligining pasayishiga sabab bo'ladigan omillar, bachadonning lokal immunitetining pasayishi sababli unga tashqaridan tushgan mikrofloralar rivojlanishi uchun qo'lay sharoit yaratilishi hisoblanadi.

Har bir xo'jalikda yaxshi jihozlangan molxona va yayratish maydonlari bo'lishi kerak. Sigirlarni qoidaga asosan saqlash va tug'ishiga 50-60 kun qolganda sutdan chiqarishga e'tibor beriladi.

Bo'g'oz va sutdan chiqarilgan sigirlarni alohida-alohida guruhlarga ajratish maqsadga muvofiqdir. G'unojin va sigirlarni, ayniqsa, tuqqanidan keyin 3-4 kun o'tgach, har kuni yayratish zarur. Buning uchun ularni ferma atrofini aylantirib, kuniga 1-2 marta 2-3 km masofaga haydab turish lozim.

Fermada tug'uruqxonalar va yangi tug'ilgan buzoqlar uchun profilaktoriylar tashkil qilinib, tug'ishiga 10 kun qolgan sigirlar yaxshilab tozalanganidan keyin tug'uruqxonaga o'tkaziladi, veterinariya-sanitariya

qoidalariga amal qilingan holda tugʻadigan sigir va buzoqlarga birinchi yordam berish uchun navbatchilik yoʻlga qoʻyiladi.

Sigirning tugʻishi meʼyorida oʻtishi uchun tugʻuruqxonalarda alohida bokslar tashkil qilinib, bokslarga sigir tugʻishidan 2-3 kun ilgari oʻtkaziladi.

Sigir tuqqanidan keyin buzogʻini yalashga imkon berish va buzoq kamida 5-7 kun onasi bilan birga saqlanishi lozim. Lekin bunda buzoq emishidan ilgari sigirning elin soʻrgʻichlari issiq suv bilan yaxshilab yuvilib artilishi zarur (Dani Glad, 2011).

Yuqoridagi chora-tadbirlarning oʻtkazilishi yoʻldosh ajralishini tezlashtiradi, elin kasalliklarining oldini oladi, sigirlar jinsiy faoliyatini tezda tiklaydi va buzoqlarni saqlab qolinishini taʼminlanadi.

A.M.CHomaev va boshqalar (2003) yozishicha, sigirlar tuqqandan keyin bachadonining tiklanish jarayoni uchun 50-60 kun ketadi. SHuning uchun ular sigirlar tuqqandan keyin birinchi oy mobaynida urugʻlantirish yuqori samara bermaydi, urugʻlantirishni ikkinchi oyda amalga oshirish maqsadga muvofiq degan xulosaga kelganlar. Mualliflarning fikricha, 4000 kg sut mahsuldorligiga ega sigirlarni tuqqandan keyin taxminan 40-kunlarda urugʻlantirish eng qulay muddat hisoblanadi.

Internet maʼlumotiga koʻra, (<http://webmvc.com/bolezni/livestock/tocology/retentio.php>) biyalarda yoʻldoshni ushlanib qolishi umumiy holatning yomonlashishi bilan oʻtadi. Kasallikning birinchi kunidayoq umumiy holsizlanish, tana haroratining koʻtarilishi, puls va nafas chastotasining tezlashishi, ishtahaning yoʻqolishi kuzatiladi. Hayvon qattiq kuchanadi, bezovtalanadi, bachadondan toʻq-qizil rangda qoʻlansa hidli ekssudat ajraladi. Qattiq kuchanish oqibatida bachadonni chiqishi qayd etilishi mumkin.

Bachadonning atoniyasi va subinvalyutsiyasini oldini olish va profilaktik davolashda oziqaviy qoʻshimchalar sifatida mineralli-vitaminli premikslarni ratsionga kiritish, organizmda ishqoriy zahirani tiklash maqsadida har kuni yayratishni tashkil etish tashkil etilishi lozim. Kasal sigirlarni quyidagi tartibda davolash tavsiya etiladi.

1.0,3-0,5 kg qandni 7 litr suvda eritib ichirish;

2. Bachadon motorikasini kuchaytirish maqsadida quyidagi miotrop vositalardan birini qo'llash: 1,5-2 ml sinestrol, 12-24 soatdan keyin 50 XB oksitotsin har 8-12 soatda bir marta, jami 2-3 marta; pitiutren yoki mammofizin bir boshga 30-60 XB bir sutkada bir marta 3-5 kun davomida; 2-3 ml 0,1%-li karboxolin yoki 0,5%-li prozerin eritmasi teri ostiga yoki muskul orasiga, har 3 kunda bir marta, jami 3 marta in'eksiya qilinadi (http://www.allvet.ru/diseases/vet_obstetrics/vet_obstetrics24.php).

I-bob bo'yicha xulosa:

1. Magistrlik dissertasiyasi mavzusi bo'yicha olib borilgan adabiyotlar tahliliga ko'ra fermer xo'jaliklari sharoitida sigirlarda bachadonning kasalliklari orasida bachadon subinvalyutsiyasi, klinik (o'tkir, surunkali, zardobli, zardobli-yiringli) va yashirin endometritlar keng tarqalgan bo'lib, katta iqtisodiy zararga sabab bo'lmoqda.

2. Qoramollar zotini yaxshilash va mahsuldorligini oshirish muammolarini samarali hal etishga katta to'sqinlik qilayotgan hayvonlarning yuqumsiz kasalliklari, shu jumladan sigirlarning bachadon subinvalyutsiyasi kasalligi asosiy o'rinni egallaydi.

3. Adabiyot ma'lumotlarining tahlili va shaxsiy kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, Respublikamizning chorvachilik fermer xo'jaliklariga chetdan keltirilgan mahsuldor sigirlarda bachadon subinvalyutsiyasi kasalligi oqibatidagi bepushtliklarning keng tarqalganligiga qaramasdan, bu kasallikning sabablari, rivojlanish xususiyatlari, ertachi aniqlash, davolash va oldini olishning samarali usullari to'liq ishlab chiqilmagan.

4. Sigirlarda bachadonning turli kasalliklari, shu jumladan bachadon subinvalyutsiyasi kasalligi oqibatida hayvonlar mahsuldorligining keskin pasayishi, ona hayvonlar reproduktiv xususiyatlarining yomonlashishi va ularning qisir qolishi hisobiga fermer xo'jaliklari katta iqtisodiy zarar ko'rmoqda.

5. A.M.CHomaev va boshqalar (2003) yozishicha, sigirlar tuqqandan keyin bachadonining tiklanish jarayoni uchun 50-60 kun ketadi. SHuning uchun ular

sigirlar tuqqandan keyin birinchi oy mobaynida urug‘lantirish yuqori samara bermaydi, urug‘lantirishni ikkinchi oyda amalga oshirish maqsadga muvofiq degan xulosaga kelganlar. Mualliflarning fikricha, 4000 kg sut mahsuldorligiga ega sigirlarni tuqqandan keyin taxminan 40-kunlarda urug‘lantirish eng qulay muddat hisoblanadi.

6. I.S.Koba (2009) sigirlarda o‘tkir endometritlarni oldini olish uchun o‘z vaqtida akusher-ginekologik dispanserlash o‘tkazish orqali kasal hayvonlarni aniqlash, ularni alohida xonalarga ajratish, tug‘ruqxonalarda gigiena-sanitariya qoidalariga rioya qilinishi, tug‘ishda aseptika-antiseptika qoidalariga rioya etilishi, faol matsion tashkil etilishi, patologik tug‘ishlarda akusherlik yordami ko‘rsatishni to‘g‘ri tashkil etish kabi profilaktik tadbirlarni bajarilishi lozimligini ta’kidlaydi.

II-bob. XUSUSIY TADQIQOTLAR

2.1. Xo‘jalikning iqtisodiy tavsifi

Ilmiy tadqiqotlarning eksperimental qismi 2015-2016 yillar davomida Samarqand viloyati Pastdarg‘om tumanidagi «Jo‘ra» fermer xo‘jaligi sharoitida bajarildi.

«Jo‘ra» qoramolchilik fermer xo‘jaligi naslchilikka ixtisoslashgan bo‘lib, 2008 yilda Belarussiya Respublikasidan 10 bosh qora ola zotli bug‘oz tanalar olib kelingan. 2012 yilda esa Polshadan 30 bosh sigirlar keltirilib parvarishlanmoqda. Mazkur fermer xo‘jaligi asosan qoramolchilikka ixtisoslashgan bo‘lib, uning iqtisodiyotida dehqonchilik ham katta salmoqqa ega. Xo‘jalikning jami yer maydoni 85 gektarni tashkil etib, shundan 80 gektariga hayvonlar uchun beda pichani, makka silosi etishtirish uchun foydalaniladi. Tajribalarni boshlash paytida fermer xo‘jaligida jami qoramollar – 186 boshni tashkil etib, shundan sigirlar – 76 bosh, g‘unojinlar – 31 bosh, bir yoshdan katta buzoqlar – 43 bosh, bir yoshgacha buzoqlar – 25 bosh, bo‘rdoqiga boqilayotgan qoramollar – 10 bosh va nasillik bo‘qalar – 1 boshni tashkil etdi.

Qoramolchilik fermer xo‘jaligi yuqumli kasalliklardan sog‘lomlashtirilgan bo‘lib, yuqumsiz kasalliklardan gipovitaminozlar, mikroelementozlar, tuyoq kasalliklari, mastit, endometrit, osteodistrofiya, yo‘ldoshning ushlanib qolishi, alimentar bepushtlik, bachadon subinvalyutsiyasi, yosh hayvonlarda esa dispepsiya va raxit kasalliklari uchrab turadi.

Xo‘jalik bo‘yicha bir bosh sigirdan sog‘ib olingan sut 2013 yilda 2100 kg, 2014 yilda 2300 kg va 2015 yilda esa 2600 kg ni, 100 bosh sigirdan buzoq olish 2013 yilda 78 bosh, 2014 yilda 80 bosh, 2015 yilda 82 boshni tashkil etdi.

1-jadval**Xo'jalikda chorva mollarini sonining o'zgarishi, bosh**

Ko'rsatkichlar	2013 yil	2014 yil	2015 yil
Jami qoramollar	96	130	186
SHundan sigirlar	42	56	76

2-jadval**Xo'jalik bo'yicha bir bosh sigirdan sog'ib olingan sut (bir sut berish davrida)**

Ko'rsatkichlar	2013	2014	2015
Sigirlardan olingan sut miqdori (kg)	2100	2300	2600
100 bosh sigirdan buzoq olish	78	80	82

Fermer xo'jaligiga qarashli qoramollarda poda sindromatikasi tahlil qilinganda sigirlar semizligining o'rtachadan pastligi, ular orasida qisir qolish, sigirlar o'rtasida bachadon subinvalyutsiyasi kasalligini uchrashi, bir yilda kutilgan buzoq olinmasligi kabi yuqumsiz kasalliklarning kuzatilishi bilan xarakterlandi.

Xo'jalikdagi sigirlarni klinik-ginekologik tekshirish bilan bachadonni kasalliklarining xarakteri o'rganilganda bachadon subinvalyusiyasi – 25 %ni, boshqa turdagi endometritlar – 28 %; yo'ldoshni ushlanib qolishi - 8%ni tashkil etdi.

Ushbu ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, xo'jalik bo'yicha sigirlar o'rtasida ko'payish organlari kasalliklarini tarqalishi natijasida xo'jalikka katta iqtisodiy zarar kelayotganidan dalolat berib, bu kasalliklar tufayli iqtisodiy zarar sigirlar sut mahsuldorligining keskin kamayishi va ulardan nimjon va hayotchanligi past

buzoqlarning tug'ilishi, ularning chiqimi va qo'shimcha veterinariya xarajatlaridan iborat bo'ladi.

2.2. Tadqiqotlar obyekti va uslublari

Mavzu yuzasidan olib borilgan izlanishlar Samarqand qishloq xo'jalik instituti o'quv tajriba xo'jaligida, Samarqand viloyati Pastdarg'om tumanidagi «Jo'ra» fermer xo'jaligida, Veterinariya fakulteti "Hayvonlarda modda almashinuv buzilishlari va bepushtlikning oldini olish ilmiy tadqiqot" laboratoriyasida bajarildi.

Fermer xo'jaliklari sharoitida mahsuldor sigirlar orasida bachadon subinvalyusiyasi kasalligining tarqalishi, sabablari va rivojlanish xususiyatlari, klinik belgilari va qondagi morfobiokimyoviy o'zgarishlarni hamda ushbu kasallikning oqibatlarini o'rganish maqsadida sog'in sigirlarda dispanser tadqiqotlar o'tkazilib, xo'jalikning chorvachilik bo'yicha iqtisodiy ko'rsatkichlari, hayvonlarni saqlash va oziqlantirish sharoitlari o'rganildi.

Dispanser tekshirishlar sigirlar tug'ishining 2-oyidan boshlanib, ularning urug'lantirilishigacha bo'lgan davrda har 20 kunda bir marta o'tkazildi. Bachadon kasalliklari bilan kasallangan sigirlardan «o'xshash juftliklar» tamoyili asosida «etalon» guruhlar tashkil etilib, ularda klinik-fiziologik status va qonning morfobiokimyoviy ko'rsatkichlari aniqlandi.

Xo'jalikdagi sigirlarning umumiy holati, ishtaha, semizlik darajasi, tashqi ta'sirotlarga javob reaksiyasiga e'tibor berildi. Umumiy qabul qilingan klinik tekshirish usullari bilan shilliq pardalar, teri va teri qoplamasi, harakat a'zolarining holati, oshqozon oldi bo'limlarining 5 daqiqadagi harakati, tana harorati, 1 daqiqadagi yurak urishi va nafas soni aniqlandi.

Sigirlar tuqqandan keyin va har 5 kunda bir marta klinik tekshirishlar, qin orqali va rektal tekshirishlar yordamida bachadonning holati va uning invalyusiyasi (o'z holiga kelishi) aniqlanib borildi, hamda tuxumdonlar holati, ularda follikulalar yoki sariq tana borligi aniqlandi. Sigirlarda kuyga kelish va jinsiy siklning kechishi o'rganildi.

Tashqi tekshirishlar bilan jinsiy lablar halati, undan shilimshiq suyuqlik oqishi, uning rangi, hidi va konsistensiyasi, shilliq pardalarning rangi aniqlandi. Qin oynasi yordamida qin orqali tekshirish bilan qin shilliq pardasining holati, bachadon buyinchasining holati, uning yopilganlik darajasi, bachadondan ajralayotgan suyuqlikning xarakteri o'rganildi.

Sigirlar davolashni boshlashdan oldin va har 10 kunda bir marta tekshirishlardan o'tkazilib turildi.

Sigirlardan olingan qon na'munalarida eritrotsitlar va leykotsitlar soni (Goryaev sanoq to'rida), gemoglobin (Gemoglobin-sianidli usul), glyukoza (Ortoluidin bilan rangli reaksiya), qon zardobida umumiy oqsil (Refraktometrik usul), leykogramma (Romanovskiy-Gimza usulida bo'yalgan surtmalarda) aniqlandi.

Mikroorganizmlarning antibiotiklarga sezuvchanligi ekmadagi antibiotiklar disklari atrofida mikoflora o'smagan zona kattaligini aniqlash usulida aniqlandi.

Sigirlarda bachadon kasalliklarini davolashni takomillashtirishda davolash vositalarini tanlash, qo'llanilgan preparatlarning terapevtik samaradorligini aniqlash maqsadida, ularning sigirlar klinik-fiziologik holati, qonning ayrim morfobiokimyoviy ko'rsatkichlari va fiziologik holatiga ta'sirini o'rganish, davolash vositalarining terapevtik va iqtisodiy samaradorligini aniqlash maqsadida davolash tajribalari o'tkazildi.

Tajribalar uchun har birida 3 boshdan bachadon subinvalyusiyasi bilan kasallangan sog'in sigirlar bo'lgan uchta guruh tashkil etilib, birinchi va ikkinchi guruh tajriba guruhi, uchinchi guruh esa nazorat guruhi qilib olindi.

Tajribaning birinchi guruhidagi kasal sigirlarga qo'yidagi tartibda davolash ishlari bajarildi:

- sigetin preparatidan 15 ml dozada kuniga bir marta 5 kun davomida muskul orasiga yuborildi.
- limoksin antibiotigidan 12 ml kuniga bir marta 5 kun davomida muskul orasiga yuborildi.
- neofur tayoqchalaridan 2 dona davolashni 1, 3, 5 kunlari bachadon ichiga.

- 10%-li kalsiy xlorid eritmasidan 150 ml, 20%-li glyukoza eritmasidan 250 ml, 20%-li kofein natriy benzoat eritmasidan 10 ml aralashtirilib vena qon tomiriga kuniga bir marta, 3 kun davomida yuborildi;

Ikkinchi tajriba guruhidagi bachadon subinvalyusiyasi bilan kasallangan sigirlar xo‘jalikda joriy etilgan usulda quyidagicha davolandi:

-oksitotsin 50 IE (10 ml) dozada muskul orasiga kuniga bir marta 1,3,5 kunlari yuborildi.

-limoksin antibiotigidan 12 ml kuniga bir marta 5 kun davomida muskul orasiga yuborildi.

-neofur tayoqchalaridan 2 dona davolashni 1, 3, 5 kunlari bachadon ichiga.

-10%-li kalsiy xlorid eritmasidan 150 ml, 20%-li glyukoza eritmasidan 250 ml, 20%-li kofein natriy benzoat eritmasidan 10 ml aralashtirilib vena qon tomiriga kuniga bir marta, 3 kun davomida yuborildi;

Nazorat guruhidagi bachadon subinvalyusiyasi bilan kasallangan sigirlar xo‘jalikda joriy etilgan usulda quyidagicha davolandi:

- Limoksin antibiotigidan kuniga bir marta 5 kun davomida muskul orasiga 15 ml yuborildi.

- bachadon 3 kun davomida kuniga bir marta to‘g‘ri ichak orqali massaj qilindi;

-furazolidon tayoqchalaridan 2 dona davolashni 1, 3, 5 kunlari bachadon ichiga.

Tajribalarni o‘tkazishda quyidagi tekshirish usullaridan foydalandik.

1. Anamez ma’lumotlarini yig’ish. Ma’lumotlar kasal hayvon egasidan yoki unga qaraydigan odamdan so‘rab olinadi. Bunda asosan quyidagilar aniqlanadi: hayvonning saqlanish, oziqlantirish va ekspluatasiya sharoitlari; tug‘ruq hosil bo‘lish vaqti, yordam ko‘rsatilgan bo‘lsa kim tomondan va qachon yordam ko‘rsatilganligi.

2. Rektal tekshirish - Sigirlarda bo‘g‘ozlikni to‘g‘ri ichak orqali (rektal) tekshirish ichki tekshirishlarning asosiysi hisoblanib, bo‘g‘ozlikni tez aniqlash

bilan birgalikda hayvonlarning jinsiy a'zolari holatini aniqlashga ham imkon beradi.

Rektal tekshirish usuli to'g'ri ichak orqali bachadon bo'yinchasi, tanasi va shoxlari, homila, tuxumdonlar, tos suyaklari, bachadon tutqichlari va undan o'tadigan bachadon arteriyalarini paypaslab ko'rishga asoslangan.

Tekshirishdan oldin albatta tirnoqlar kalta qirqilib, uning o'tkir burchaklari tekislanadi, xalat, rezina etik kiyilib, fartuk bog'lanadi, yalang'ochlangan qo'lga engcha kiyiladi. Hayvonga kuchli og'riq sezdirmaslik va to'g'ri ichakni jarohatlamaslik uchun qo'l tekshiruvchi kishi qo'li vazelin bilan yog'lanadi. Bu sohada tajriba orttirilgach, albatta maxsus ginekologik qo'lqoplar yoki bir marta ishlatiladigan polietilen qo'lqoplardan foydalanish lozim.

Sigirlarni rektal tekshirish molxonalarda, ularning odatdagi joyida, yaxshisi ertalab oshqozon-ichak kanali bo'shroq bo'lgan paytda o'tkaziladi. Yordamchi kishi bir qo'li bilan tizza atrofi terisidan ikkinchi qo'li bilan elka atrofi terisidan mahkam ushlab sigirni fiksatsiya qiladi. Sigirlar harakatlanmasligi uchun chap qo'l bilan uning dumi ildizidan chap tomonga burib ushlanadi. Sigirning to'g'ri ichagiga qo'l barmoqlari konussimon yig'ilgan holda aylanma harakatlantirib yuboriladi. Keyin barmoqlar biroz yozilib, to'g'ri ichakka havo kirishiga sharoit yaratiladi. Ichakka havo kirishi uning reflektor ravishda qisqarishini ta'minlaydi va defekatsiya natijasida ichakdagi tezak chiqariladi. Defekatsiya sodir bo'lmaganda barmoqning yumshoq qismi bilan to'g'ri ichak shilliq pardasi paypaslanib, to'g'ri ichak tezakdan tozalanadi.

Jinsiy a'zolari to'g'ri ichak orqali paypaslab tekshirishda to'g'ri ichak devorlarining kuchli qisqarishi kuzatilganda qo'lni qimirlatmasdan hayvonning tinchlanishini kutish kerak. Hayvon tinchlangach, qo'lni oldinga qarab qorin bo'shlig'i tomon chuqurroq yuborish lozim, chunki u erda to'g'ri ichak uzunroq pardaga osilganligi sababli harakatchan, u yoki bu tomonga oson siljiydigan bo'ladi. Keyin qo'lni to'g'ri ichakning harakatchan qismida tos bo'shlig'i tomon tortib, bachadon bo'yinchasi topiladi. Bachadon bo'yinchasini topish boshqa jinsiy

a'zolari aniqlashga yordam beradi. SHuning uchun tekshirishda avval bachadon bo'yinchasini topish lozim.

3. Qonning morfologik ko'rsatkichlarni aniqlash:

1. Eritrositlarni sanash

Buning uchun Goryayevning sanoq kamerasidan foydalandik. Unda 225 kvadrat buladi va ular yana 16 ta katta kvadratga birlashadi. Eritrositlar 5 ta katta kvadratlarda sanaladi. Uning xar bittasi 16 ta mayda kvadratni o'z ichiga oladi, ya'ni jami $16 \times 5 = 80$ kvadrat sanaladi. Kamerani ishga tayyorlash: kamera ustiga buyum oynachasi qo'yiladi va yuzasida kamalak rangda xalqa paydo bo'lgancha bir-biriga ishqalanadi, sung kamera mikroskopga o'rnatiladi. Qon qizil donachasi bor melanjerga olinadi. Melanjerda 3 ta rakam yozilgan 0,5-1-101. Qon 0,5 yoki 1 gacha olinadi va 3 % li osh tuzi eritmasi bilan 101 ko'rsatkichigacha yetkaziladi. Shundan so'ng bir necha marta aralashtirilib, birinchi tomchi tashlanadi va ikkinchisi kamera va buyum oynachasi oraligiga quyiladi va sanash boshlanadi. Eritrositlar soni quyidagi formula bilan aniqlanadi.

$$X = \frac{A \cdot 4000 \cdot u}{80}$$

Bunda: A - 5 katta kvadratlarda eritrositlar soni

4000 - Goryayev to'lining xajmi

u- aralashish darajasi

2. Qonda leykositlar sonini aniqlash

Bunda ham Goryayev sanok kamerasi ishlatiladi. Qon oq donachasi bor melanjerga olinadi (10.5-11) gacha. Qon kerakli belgigacha olingandan keyin unga 3% sirka kislotasi qo'shiladi va yaxshilab aralashtiriladi. Melanjerdagi qon aralashtirilgandan keyin ikkita tomchi tashlanib, uchinchisi kamera va buyum oynachasi oraligiga quyiladi. Lekositlar 100 ta katakda sanaladi. Leykositlar soni quyidagi formula bilan topiladi

$$A \cdot 4000 \cdot 200$$

$$X = \frac{\text{-----}}{1600}$$

Bunda: A-100 katta kvadratlardagi leykositlar soni,

1600-aralashtirish darajasi.

4000 - Goryayev to'lining xajmi

3. Gemoglobinning qondagi miqdorini aniqlash

Gemoglobin FEK priborida aniklanadi, uning to'lik uzunligi 540 nm ga teng. Gemoglobin qondagi oksigemoglobin bo'yalishi buyicha aniqlanadi, buning uchun oldin qon 4 ml 0.04 % ammiak eritmasi ta'sirida gemolizga uchraydi - byuretk yordamida ammiak eritmasi probirkaga quyiladi so'ng Salli gemometrining kapillyariga 20 mm³ qon olinib ammiak eritmasiga qo'shiladi va 3 marotaba chayk,aladi. Gemoglobinni aniqlash uchun namuna kyuvetkaga qo'yiladi, va FEK ning yashil svetofiltrida ko'riladi. O'ng baraban shkalasidan olingan eritma zichligi ko'rsatkichini maxsus jadvalga qo'yib qondagi gemoglobin miqdori aniqlanadi.

2.3. Qoramollar qonining morfologik ko'rsatkichlariga sigetinni ta'siri

Bizning qo'l ostimizda bo'lgan adabiyotlar ma'lumotlari hamda internet tarmog'idan olingan eng yangi materiallardan qishloq xo'jalik hayvonlari qon tarkibiga estrogenlarning ta'sir etishi to'g'risidagi turli xil ma'lumotlar olindi. Jumladan, qonning morfologik ko'rsatkichlariga ta'sirini o'rganish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarga ko'ra Vitten va Bradburi (1961), Dukes (1974), Sampbel (1977), qon tarkibida 4-10 kun davomida eritrotsitlar soni va gemoglobinlar miqdorining kamayishi hamda asta- sekinlik bilan dastlabki holiga qaytishini ta'kidlab o'tishgan. SHunga binoan, qon tarkibidagi shakilli elementlar miqdorining dastlabki kunlarda me'yordan o'zgarishlarini mazkur mualliflar tajribalar boshida qonning suyulishi bilan bog'lanadi.

Kornari (1969) 65 nafar kasal insonlar ustidan kuzatishlar olib borar ekan, eritrotsitlar va leykotsitlar sonining ahamiyatli darajada o'zgarishlarini qayd etmagan, shuningdek hatto estrogen preparatlarini uzoq muddatlar davomida

organizmga berib borilganda ham gemoglobinlarning foizli miqdori uzoq vaqt davomidagi tajribalarda ham sezilarli o'zgarishlarini kuzatmagan.

Shunday qilib A.F. Moskolenko (1971) ta'kidlashicha estrogenlarning ta'siri ostida suyak iligi bir qadar xo'jayraviy bo'lib, bunda uning elektro va mikoblastik ustida faoligi oshadi. YU.N. SHamberov (1971) estrogenlar ta'siri ostida qon tarkibidagi leykotsitlar miqdorining leykotsitlar miqdorining olinishi hayvon organizmiga qisman zaharli ravishda preparatning ta'sir etishi bilan tushintiradi.

Qayd etilgan adabiyotlar ma'lumotlaridan ko'rinadiki, garchi ular ko'pgina hollarda turi, dozasi va preparatni qo'llash davomiyligiga chambarchas bog'liq bo'lsada hayvonlar qon ko'rsatkichlariga estrogenlarning ta'sir etishi haqidagi bir-biriga mos bo'lmagan qarama-qarshi fikrlar mavjud.

Shubxasiz, bunday hollarda asosiy ahamiyatni hayvon organizmining fiziologik holati, turi va jinsi o'ynaydi. Ayrim mualliflar esa, o'rg'ochi itlarga follikulin dozasini yuqori darajada yuborilganda, eritrotsitlar miqdorining oshishi va aksincha leykotsitlar sonining sezilarli kamayishini aniqlashgan. Huddi shunday fikrga qonning morfologik tarkibiga sinestrol va ADP ning ta'sir etishini tadqiq etgan A.R. Osmanov (1978) va A.S. Sulaymonovlar (1991) qo'yonlar, qoramol va yosh tovuqlar qon zardobining bioximyoviy ko'rsatkichlarini o'rganib tasdiqlandi.

Estrogenlarning qonning morfologik tarkibiga estrogenlarning turli darajada ta'sir etishini hisobga olib, biz sigetinning turli dozalarda qoramol ayrim qon ko'rsatkichlariga ta'sirini o'rgandik. Tajribalarni 8-10 oylik 9 bosh qoramollarda 3 ta bir xil guruhlarga ajratib o'tkazdik. Bunda sigetinni turli dozalarda qonning shakilli elementlari – eritrotsitlar, leykotsitlar va shuningdek gemoglobinning foizli miqdoriga ta'sir etish qonuniyatlari tadqiq etildi. Bundan tashqari, qoramol qon zardobining umumiy oqsili va oqsil fraksiyalarga mazkur preparatning ta'sir etishi ham bir vaqtning o'zida o'rganish uchun manba qilib olindi.

Tadqiqotlar umumiy qabul qilingan uslublar bo'yicha olib borildi. Tajribalarni o'tkazishni boshlashdan oldin, tajriba hayvonlari 16 kun davomida

umumiy kuzatishlar ostida bo'ldi. Tajribalar boshlanganida 3 kun davomida sigetinni 5; 10; 50 mg/kg dozalarda vena qon tomiriga in'eksiya qilindi va shuningdek keyingi o'tkazilgan tajribalarda hayvon tirik vaznining har bir kilogrammiga 1; 2; 3; va 4 mg dan yuborilib mazkur dozalarning ta'sir doirasi tadqiq qilindi, qaysiki ular qonning o'rganilayotgan ko'rsatkichlariga ahamiyatli ta'sir ko'rsatmaydi.

3-jadval

Qoramol qon tarkibidagi eritrotsitlar soniga (mln/mkl) sigetinning ta'siri

	Statistika ko'rsatkichlari	Sigetin yuborilganga qadar	Sigetinni qo'llagandan keyingi turli muddatlarda qoramol qon tarkibidagi eritrotsitlar soni ko'rsatkichlari.						
			3 soat	6 soat	12 soat	24 soat	3 kun	6 kun	15 kun
5mg/kg	M ±	6,66	6,63	6,44	6,48	6,42	6,24	6,47	6,66
	M	0,33	0,30	0,27	0,30	0,30	0,30	0,32	0,34
10mg/kg	M ±	6,65	6,30	6,38	6,42	6,44	6,50	6,68	6,76
	M	0,60	0,59	0,50	0,45	0,42	0,47	0,50	0,47
50mg/kg	M ±	6,36	5,42	5,32	5,24	5,18	5,08	5,80	6,34
	M	0,33	0,34	0,39	0,26	0,23	0,25	0,24	0,23

Hayvonlar 30 kun davomida tajriba manbai bo'lib xizmat qildi.

SHunday qilib, o'rganilayotgan ko'rsatkichlar preparat ta'sirining boshlanishi va nixoyasiga etguniga qadar aniqlandi. Dastlabki holatda qonning tekshirishi ikki marotaba amalga oshirildi va dinamikada sigetinning oxirgi in'eksiyasidan keyin ham ikki karra qon ko'rsatkichlari olindi.

4-jadval

Qoramol qon tarkibidagi leykotsitlar soniga (ming/mkl) sigetinning ta'siri

	Statistika ko'rsatgichlari	Sigetin yuborilganga qadar	Sigetinni qo'llagandan keyingi turli muddatlarda qoramol qon tarkibidagi leykotsitlar soni ko'rsatgichlari.						
			3 soat	6 soat	12 soat	24 soat	3 kun	6 kun	15 kun
5 g/kg	M ±	7,31	7.29	7,12	7,35	7,34	7,44	7,32	7,93
	M	0,53	0,04	0,02	0.25	0.02	0.02	0.20	0.10
10mg/kg	M ±	7.48	7.74	7.79	7.89	7.98	7.70	7.62	7.46
	M	0.53	0.07	0.06	0.05	0.06	0.06	0.05	0.14
50mg/kg	M ±	7.46	8.34	8.44	8.70	8.90	8.65	8.15	7.59
	M	0.46	0.12	0.18	0.21	0.19	0.05	0.14	0.19

3,4,5 jadvallardan ko'rinib turibdiki, hayvonlar qonida sezilarli o'zgarishlar sigetinning ta'sir etish dozasi to'g'ridan – to'g'ri bog'liq holda va preparatlarni sungi marta qo'llash muddatidan tadqiq etishga bog'liqligi namoyon.

Sigetinni 5 mg/kg dozada (birinchi guruh) uch marotaba yuborilganda butun tajribalar davri davomida qoramol qon ko'rsatgichlarida ahamiyatli o'zgarishlar ko'zatilmaydi, ya'ni eritrotsitlar (- 1,89+5,03%) leykotsitlar (2,59+8,89%) miqdori va gemoglobinlar salmog'i (- 2,13+12,76%) tomonidan sodir etilgan

ishlar dastlabki ko'rsatkichlarga nisbatan olib solishtirilganda bir xilda bo'lmaganligi qayd etildi.

Qoramol qon tarkibidagi gemogloblin miqdoriga (g/l) sigetinning ta'siri

	Statistika ko'rsatkichlari	Sigetin yuborilganga qadar	Sigetinni qo'llagandan keyingi turli muddatlarda qoramol qon tarkibidagi gemogloblin soni ko'rsatkichlari.						
			3 soat	6 soat	12 soat	24 soat	3 kun	6 kun	15 kun
5mg/kg	M ±	104.03	104.02	104.04	104.04	104.06	102.04	104.07	104.03
	M	5.78	5.4	5.6	5.4	3.4	4.1	5.4	5.3
10mg/kg	M ±	102.06	95.06	96.04	97.07	99.05	103.01	104.01	103.01
	M	5.46	2.6	3.3	3.1	3.1	2.8	4.3	3.5
50mg/kg	M ±	106.04	87.07	86.04	85.05	83.06	82.07	90.08	106.04
	M	5.78	6.8	4.6	4.9	4.0	3.2	2.1	1.7

10 mg/kg dozada uch marotaba sigetin ineksiya qilinganda (ikkinchi guruh), qoramol ko'rsatkichlarining darajasida sezilarli va qonuniy o'zgarishlarga olib keldi. Dastlabki ko'rsatkichiga nisbatan eritrotsitlarning soni 1; 2; 3; 6; 12; va 24 soatlarga va shuningdek tadqiqotlarning 3- kuniga kelib, ya'ni preparatning oxirgi marta yuborilganidan keyin uch kun o'tgach 2,24 dan 7,47% gacha kamaydi. Ular soning eng katta ko'rsatkichiga kamayishi 1;2 va 3 – soatlarda (mutanosib ravishda 7,47; 6,47 va 5, 25%) ro'y bergan bo'lsa, keyinchalik (6 – kundan boshlab) va tajribalarning poyonida dastlabki ko'rsatkichlarga nisbatan 3,75 % ga oshganligini ko'zatish mumkin. Gemogloblin miqdori ham tadqiqotlarning bu mudatlarida 2,95-10,79 % gacha kamaydi, ammo tajribalarning oxirgi kunlariga (20 kunida) kelib

3,92 % ga ko'tarilganligi qayd etildi. Gemoglobinlar miqdorining maksimal pasayishi tajribaning dastlabki 1;2;3 va 6 soatlarida ko'zatildi ya'ni bu miqdor mutanosib ravishda 10,79; 7,85; 6,87; va 5,89 %ga to'g'ri keldi.

Tajribaning dastlabki sutkasida leykotsitlar soni 2,14 – 6,68 % ga oshdi. Qon tarkibidagi leykotsitlar sonining maksimal oshishi dorivor moddanni oxirgi marta yuborilganidan keyingi tekshirishlarning 6; 12 va 24 soatlarda ko'zatildi. Tajriba poyonida esa qonning bu ko'rsatgichi yana o'zining dastlabki holati bilan tenglashdi. Ammo tadqiqot qilinayotgan qon ko'rsatgichlari (ya'ni eritrotsitlar va leykotsitlar soni hamda gemoglobinlar miqdori) mazkur guruhda ham statistika jixatidan aniq emas edi (00,05).

Sigetinni 3 marotaba 50 mg/kg dozada qo'llanilganidan keyin (uchinchi guruh), qonning shakilli elementlari miqdoriy ko'rsatgichida eng ahamiyatli o'zgarishlar ko'zatildi. Tajribaning poyonigacha tadqiq etilayotgan hayvonlardagi qonning eritrotsitlar va leykotsitlari soni hamda gemoglobinlarning miqdori sezilarli kamaydi, leykotsitlar soni esa umumiy natijalarga ko'ra bir qadar kamaydi eritrotsitlar soni 14,47 – 20,13 % (R 0,02) ga, gemoglobinlar miqdori (16,0-22,65%) (R 0,01) ga kamaydi. Leykotsitlar sonining oshishi 9,24-19,30% (R 0,02)ga teng bo'ldi.

Barcha tadqiq etilayotgan qon ko'rsatkichlarining (eritrotsitlar, leykotsitlar va gemoglobin) maksimal og'ishi dastlabki darajasiga nisbatan sigetinni oxirgi marta qo'llangan kundan uch kun o'tib (ya'ni dastlabki uch kun davomida) ko'zatildi. Shundan keyin esa, qon ko'rsatkichlari dastlabki holatiga qaytish ananasi qayd etildi. Ammo, tadqiqotlarning so'ngi kunida o'tkazilgan tekshirishlarda eritrotsitlar soni va gemoglobinning miqdoriy foizi yanada kichikroq, ya'ni 0,31 va 1,88 foizga kamaygan bo'lsa leykotsitlar soni esa 0,26 % ga ko'tarilganligini guvohi bo'ldik.

Shunday qilib, sigetin dozasi hamda tadqiqotlar muddatiga bog'liq holda oxirgi marta qo'llanilganidan so'ng, qoramol qonning shakilli elementlariga miqdoriy jihatdan sezilarli ta'sir ko'rsatish aniqlandi. Hayvonlar qoni ko'rsatkichlarining o'zgarishlari shundan dalolat beradiki, sigetinning ta'siri ostida

(5-10 mg/kg) tajribaning dastlabki kunlarida eritrotsitlar soni va gemoglobinlar miqdorining kamayishi va aksincha leykotsitlar sonining ko'tarilishi kuzatiladi. Tajribaning so'ngi muddatlarida esa qonning ko'rsatkichlari me'yorga qaytadi va hatto qisman oshadi ham. Qon tarkibi ko'rsatkichlarining bunday o'zgarishlariga hayvonning fiziologik holati (yoshi va qo'llanilgan preparatning dozasi ham o'z ta'sirini o'tkazmasdan qolmaydi.)

Eng kam va o'rtacha dozalarda (ya'ni 5-10 mg/kg) hayvonlar qoni ko'rsatkichlari deyarlik bir xil yo'nalishda, lekin turli xil darajalarda o'zgarganligini qayd etish lozim.

Sigetinining yuqori dozalarida esa (50 mg/kg), ancha mustaxkam qonuniyotlikka taniladi: eritrotsitlar soni va gemoglobulinning miqdoriy foizlari kamayadi, leykotsitlar soni esa aksincha ortadi.

Bundan tashqari, tadqiqotlar natijasida aniqlanganki, suvda erimaydigan estrogen moddalar jumladan sinestrol (A.R. Osmanov 1978) va estrodiol dipropionat (A.S. Sulaymonov 1991) larga nisbatan, suvda eruvchi estrogen preparatlar hayvonlar qonning morfologik ko'rsatkichlariga ancha yuqori va tezkor darajada o'z ta'sirini ko'rsatadi.

2.4. Sigirlarda bachadon subinvalyutsiyasini davolash tajribalarining natijalari

Qochirish yoki reproduktiv funksiya – bu qishloq xo'jalik hayvonlarini ko'payishini ta'minlovchi murakkab biologik holatlardan biri hisoblanadi.

Zamonaviy fiziologik, bioximik, sito- va gistoximik, immunologik, elektroforetik, hamda elektron mikroskopik, masspektrometrik va boshqa ko'plab tekshirish usullari urg'ochi hayvonlar organizmi holatini qochirishga tayyorlash davrida, bo'g'ozlik davrida va tuqqandan keyingi davrida o'rganish uchun ob'ektiv ma'lumotlar to'plashga keng imkoniyatlar beradi. Jinsiy funksiyani amal qilishi to'g'risidagi, aniqrog'i va homila o'rtasidagi aloqa bu yagona sistemada kechishi, ya'ni platsenta yordamida amalga oshirilishi to'g'risidagi bizning qarashlarimiz bir oz kengaydi. Biroq, ularni funksional birligi implantatsiya davrida o'rnatilmaydi,

balkim bir oz oldinroq, qaysikim zigota bachadon davridagi yopishmagan vaqtda va uning oziqlanishi ona suti hisobiga bo'layotgan paytda o'rnatila

Shuning uchun jinsiy funksiya amal qilishi jinsiy sikllar, qochirish, homiladorlik va bo'g'ozlik hamda neyrogumoral mexanizmlar, repraduktiv funksiyani amalga oshiruvchi mexanizmlar, ko'payishi funksiyasini laktatsiya bilan birlashtiruvchi mexanizmlar va boshqa protsesslar yagona sistemaga, ya'ni hayvonlarni ko'payishi va mahsuldorlik sifatini yuqori darajada ta'minlovchi omillarni turli tomonlarini muhimligini aniqlash zarurati tug'ildi.

Hayvonlarni ko'payishdek murakkab muammoni yechish, bu jinsiy funksiyani vujudga kelishi, homiladorlik, homilani ona ichida rivojlanishi va normal tuzish kabi aktual usullarni yechish bilan barobardir.

Bo'g'ozlik, bu I.P. Pavlov ta'limoti bo'yicha, bu murakkab tug'ma jinsiy reflekslarni bir bulagi deb qarash kerak.

Albatta, bo'g'ozlik organizmda yangi bir biologik holatni yaratadiki, buning natijasida organizmni asab boshqaruvini turli funksiyalarida qayta qurish boshlanadi. Lekin buni patologiya deb qarash noto'g'ri. Biroq bo'g'ozlikka va har qanday fiziologik holatga agar atrof muhit sharoiti ona organizmi uchun to'g'ri kelmasa, homila rivojlanishini buzilishiga va shunda turli patologik holatlarni kelib chiqishi, aniqrog'i abortlar bo'lishi o'lik yoki nimjon homila tug'ilishi, xattoki onani holokatga olib kelishi mumkin. (Yakushin. A.D. 1992; Eroxin A.S. 1998; Straevskiy Ya.S. 1999).

Fan va amaliyot shuni ko'rsatadiki, ko'payish protsessini takomillashtiruvchi har qanday usullarda albatta dori moddalari qo'llaniladi.

Adabiyotlar bo'yicha ma'lumotlardan shunday xulosa chiqarildiki, ko'payish protsessini samarali va umumiy farmakoregulyasiya qilishda shuni talab qiladiki, qo'llanilaadigan va tavsiya qilinadigan yangi stimullovchi aniq, uzoq va tejamli ta'sir etishi kerak (Ata-Qurbonov SH.B., 1997, 1998; SHpakovskaya O.N, 2000.) Bundan tashqari, bu preparatlar hayvonni fiziologik holatini hisobga olgan holda, aniqrog'i organizmdagi modda almashinuvi va jinsiy organlar holati hisobga olinib qo'llaniladi.

Farmakologik moddalarni bachadonga ta'sirini uzoq vaqtlar faqat tug'ish davrida va keyingi inovolyusiya davridoliyatini o'rganganlar. Hozirgi sharoitda, yuqorida izoh berganimizdek, bachadon funksiyasini butun servis davrida o'rganish imkoniyati tug'ildi va organi faoliyatini regulyasiya qiluvchi mexanizmlar mohiyati ochildi.

Ma'lumki, ham meditsina, ham veterinariya akusherlik amaliyotida homila pardasini yo'ldoshni ushlanib qolishi, bachadon gipo – va atoniyasida, qon ketishlarda, homila asfiksiyasi va mumufikatsiyasida, tug'ish sustlashganda, bachadon subinvalyutsiyasini tezlashtirishda, jinsiy siklni tezlashtirishda hamda ko'pchilik yallig'lanish holatlarida farmakologik vositalarni qo'llamasdan iloj yo'q. (G.V. Zvereva, 1989; X.B. Baylishev, 1999; D. A. Hamdamova, 1999; 2000).

Keng miqyosda qo'llaniladigan gormonal (follikulin, oksitotsin, sinestrol va hakovlar.) prostoglandinlar va boshqa vositalar bachadonga yoki uterogen farmakologik vositalar hisoblanadi.

Biroq amaliyotda qo'llaniladiganlar bu vositalarni ko'pchiligini kamchiligi bor, jumladan, qisqa muddatli ta'sir etadi, bachadon qisqarishini qo'zg'atuvchi ta'siri qisqa, qon tomirlar va yurak faoliyatiga va suvda erimaydi.

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlarni hisobga olgan holda va yangi samarali usterogen vositalarni qo'llash maqsadida bizlar yangi suvda eriydigan sigetin preparatini amaliyotda sinovdan o'tkazdik va avval amaliyotda qo'llanib kelinayotgan oksitotsin, metil ergometrin prostoglandin va boshqalar bilan taqqoslab veterinariyada qo'llash uchun tavsiyanoma beradik.

Biz o'z tajribalarimizda asosiy e'tiborni hayvonlar ko'payishi organlariga sigetinni qanday ta'sir etishiga qaratdik. Ma'lum, utrogen vositalarga baho berishda 4 ta asosiy ko'rsatgichlar e'tibor beriladi:

- 1.Qisqarish bo'lmaganda doimiy qisqarishlarni paydo bo'lishi;
- 2.Mavjud qisqarishlarni kuchayishi
- 3.Bachadonni tonik kuchlanishini kuchayishini doimiy qisqarishlar fani saqlagan holda

4. Bachadonni doimiy qisqarishlarisiz tonik qisqarishlar hosil qilish.

O'tkazilgan tajribalar shuni ko'rsatdiki, sigetinni ta'siri yuqoridagi 4 ta talabalarga javob beradi.

Oldimizga qo'yilgan vazifani amalga oshirish uchun biz qoramolchilikka ixtisoslashtirilgan xo'jalikka murojat qildik va ushbu xo'jalikda bajariladigan zooveterinariya chora-tadbirlarni analiz qildik.

Ilmiy izlanishlarni samarali bo'lishi uchun shu xo'jalik mutaxassislari tomonidan o'tkazilgan rektal tekshirish natijalari, chuqur analiz qilindi.

Bachadonni, qinni, tuxum yo'li yallig'lanish holatlari simptomatik diagnostika qilindi. Asosiy e'tiborni hayvonlarni bo'g'ozligini kechishi, tug'ish va tug'ishdan keyingi holatlarga qaratdik.

Yallig'lanishsiz disfunktsiya holatlari (bachadonni atoniya va gipotoniya, yuqimsiz abortlar, tuxumdon gipotoniya, follikulyar kistalar, kuchsiz kuchanishlar, tuxumidan sariq tana persistensiyasi va boshqalar) rektal tekshirishlar orqali 20-25 kundan keyin va jinsiy qo'zg'alish hosil bo'lgandan keyin diagnoz qilindi.

Sigirlar, tuqqandan 30-35 kun o'tgach qochmasa qisir deb hisoblandi.

Qayd etilgan davr mobaynida biz quyidagi patologik jarayonlarni aniqladik: metfitlar, vaginitlar, erta embrional o'lim, bachadonning gipotoniya va atoniya, bachadon subinvalyutsiyasi, kuchsiz davr va to'lg'oq tutishi, simptomatik yuqimsiz abortlar hamda homila asfiksiyasi (homilaning kislorod etishmasligidan nobud bo'lishi).

Jinsiy sistemaning hozirgi zamon endokrinologik yutuqlari podani qayta urchitishning eng muhim bosqichlarida xususan zigotaning rivojlanishi (10-chi kungacha), embrional davr (10-40 kunlar) va homilaning rivojlanishi (tug'ruqqacha) bilan bog'liq bo'lgan holda farmakologik preparatlarni qo'llashning nazariy va amaliy asosini yaratadi.

Ko'plab tadqiqotchilarning ma'lumotlariga ko'ra, birinchi urug'lantirilgandan keyingi otalanish va bo'g'ozlikning tasdiqlanishi 30-60%

hayvonlarda kuzatiladi. Meyoriy jinsiy sikl qamrovidan yuqori bo'lgan muddatsiz qayta urug'lantirish sabablaridan biri embrionlar o'limi hisoblanadi.

Embrionlar o'limi jinsiy sikllarning kechishi va davomiyligiga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Embrional o'lim va homilaning nobud bo'lishini hisobga olgan holda sigirlarning tug'riqdan keyingi turli muddatlarda tabiiy otalanish muammosi xozirgi kunga qadar kam o'rganilgan holda qolib, qishloq xo'jalik hayvonlarning bepushtligiga qarshi kurashishning samarali usullarini ishlab chiqishi imkonini bermaydi.

Bachadon subinvolotsiyasi bachadon muskullari retra ushlanib qolishi, karunkulalar redeksisi, degerativ - regenerativ jarayonlarning endometriyada saqlanib qolishi hamda biriktiruvchi apparat qayta tiklanishining tormozlanib qolishi bilan tavsiflanadi.

Mazkur xo'jalikning fermasida ham, ayrim yillardagi bachadon subinvolotsiyasining kelib chiqish ketma- ketligi tuqqan sigirlarga nisbatan 20-25 foizga etgan. Bizga malumki, bachadon bo'shlig'ida eksudatlarning to'planib qolishi to'qimalar emirilishining oraliq mahsulotlari hosil bo'lishiga olib keladi va qaysiki ular qonga so'rilib organizmning zaharlanishini keltirib chiqaradi. Subinvolotsiya aksariyat hollarda tug'riqdan keyingi endometrit bilan asoratlanishi mumkin.

Jinsiy a'zolardan involyusion jarayonlarning buzilishini tug'riqdan keyingi 7-8 kunlarda aniqlashga imkon beradigan dastlabki klinik belgilarga asosan to'q-qizil rangdagi, tarkibida karunkulalar epiteliysining irigan bo'laklari va homila qobig'i bo'laklarini saqlagan quyuq eksudatlarning sigir yotgan holatidagi ajralib chiqishi xizmat qiladi.

Bachadon gipotoniya va atoniya bachadon shoxlari va tanasining kuchsiz qisqarishi (gipotoniya) yoki bachadon qisqarishlarining to'liq kuzatilmaslari (atoniya) bilan tavsiflanadi.

Mazkur kasallik oqibatida uzoq muddatli yoki doimiy qisrlik, bir jihatdan otalanish joyiga spermalar harakatlanish mexanizmining bo'zishi bilan, ikkinchi

jihatdan esa, bo'g'ozlikning dastlabki bosqichlarida abortlarga olib keluvchi endometriyaning funksional quvvatining kamayishi bilan tavsiflanadi.

Bachadon gipotoniyasi va atoniyasining negizida bir guruh sabablar yotadi:

1. Bachadon innervatsiyasining buzilishlari qisman sinapslarda nerv impulslarining uzatilish mexanizmi izdan chiqadi;
2. Yallig'lanish jarayonlarning uzoq davom etishi negizida miometriyada strukturaviy o'zgarishlar (fibroz, mushak to'qimasining degeneratsiyasi) ning bo'lishi;

Patologik jarayonlarning rivojlanishiga avitaminozlar, mineral taqchillik, gepodinamilar imkon tug'diradi. Estrogenlar va oksitotsin sekretsiyalarining buzilishi ham o'z navbatida bachadon gipotoniyasi va atoniyasining kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Ular aksariyat hollarda subinvolyutsiyasi bilan birga keladi.

Kasallikka tashxiz qo'yish qo'yidagi belgilarga asosan amalga oshiriladi: bachadon shoxlari hajmining kattalashishi, qorin bo'shlig'iga qarab qisman siljishi va to'g'rilanishi; bachadon tonusi va uning uqalashga bo'lgan reaksiyasining pasayishi (atoniyada ular bo'lmaydi); miometriyada alternativ tavsifga ega bo'lgan strukturaviy o'zgarishlarning mavjudligi, shoxlar devori keskin yupqalashgan va go'yo siydik pufagi yoki ichaklar devorini eslatadi; bachadon qirralari yaqqol tasvirga ega emas. Bu kabi belgilarni tug'riqdan keyingi 7-15 kunlarda rektal tekshirish orqali aniqlash mumkin.

Tug'riq jarayonida ko'rsatiladigan yordamni tashkillashtirish va tug'riqdan keyingi davr kechishini nazorat qilib borish akusher–ginekologik dispanserizatsiyalashning muhim bo'g'inlaridan biriga kiradi.

Ko'p yillik tadqiqotlarning dalolat berishiga, tug'riq jarayoni va tug'riqdan keyingi davr patologiyalari bo'lgan sigirlarda tug'ish va otalanishgacha bo'lgan muddat tuman va xo'jaliklarida, ayrim yillarda 120-160 kungacha cho'zilib ketgan, urug'lantirish indeksi 1,9 dan 3,5 gacha ko'tarilgan, 20 % dan ortiq sigirlarni uzoq muddatli qisrligi va bepushtligi uchun brak sifatida hisobdan chiqarishga to'g'ri keladi.

Statistika boshqarmasining ma'lumotlariga ko'ra, respublikada sigirlar tug'ishi patologiyasining qayta- qayta takrornishi o'rtacha 4-6 % ni tashkil etsa, yirik komplekslar va chorvachilik fermalarida esa, gipodinamiya sharoitlaring aniq namoyon bo'lganida 30% gacha ko'tariladi.

Og'ir va patologik tug'riqlar aksariyat hollarda homila o'limi bilan yakunlanadi. Tug'riq jarayoni va tug'riqdan keyingi davr hisobiga barcha yo'qotishlarning 75% to'g'ri keladi (V.SHlosa, Ya.Dafti, 1990; A.M. Gavrikov, 2002; V.M. SHiriev va boshqalar., 2004)

Ma'lumki, sigirlarda tug'riqdan keyingi asoratlarning oldini olish maqsadida, birinchi navbatda tabiiy omillardan foydalanish lozim, tug'riqdan keyingi asoratlarni kamaytirish bo'yicha umumxo'jalik tadbirlarini amalga oshirish imkonini bermaydigan holatlarda va ular tajribalarimizdagi kabi farmakoprofilaktika, farmakoterapiya va farmakostimulyasiya vositalarini qo'llash o'zini to'liq oqlashini qayd etish lozim.

2.4.1. Sigirlarni oziqlantirishning tahlili

Sigirlar organizmining to'yimli moddalar va shuningdek, vitaminlar hamda makro- va mikroelementlarga bo'lgan ehtiyojlarining qondirilish darajasini o'rganish maqsadida xo'jaliklarda sigirlar ratsionlari tarkibi va to'yimligi bo'yicha zootexnikaviy tahlil qilindi.

Fermer xo'jaligida sigirlar ratsioni asosan silos-konsentrat tipida ekanligi bilan xarakterlanib, oziqlantirish me'yorlariga nisbatan 2,08 oziqa birligining etishmasligi qayd etildi. Ratsiondagi hazmlanuvchi protien 911,8 grammni, u bilan ta'minlanish esa 105,8 foizni tashkil etdi.

Sigirlar organizmining engil hazmlanuvchi uglevodlarga bo'lgan ehtiyojlarining qondirilishi 46,4 foizni tashkil etdi, ya'ni ratsiondagi qand miqdorining me'yorlardan 364,4 grammga kamligi aniqlandi. Qand-oqsil nisbati me'yordagi 0,8-1,2 o'rniga 0,34 ni tashkil etdi.

Sigirlar ratsionidagi kletchatkaning miqdori me'yordagi 2850 g o'rniga 2726 grammni, karotinning miqdori 168,8 mg.ni tashkil etdi. Ratsionda

karotinning tanqisligi retinolning organizmda endogen sintezi va zahiralarning kamayishi va oqibatda modda almashinuvlarining izdan chiqishi, bachadonni tuqqandan keyingi qayta tiklanishining kechikishi, qisir qolishiga sababab bo'lishi mumkin.

Xo'jalikda sigirlar ratsionining makroelementli tarkibi oziqlantirish me'yorlariga nisbatan kalsiyning 5,49 grammga va fosforning 6,3 grammga etishmasligi bilan xarakterlandi. Fosforning kalsiyga nisbati 0,52 ga teng ekanligi aniqlandi.

Sog'in sigirlarning oziqlantirilishini tahlil qilish bilan shunday xulosaga keldikki, ratsionlar tipi, tarkibi va to'yimlilik bo'yicha sigirlar organizmining to'yimli moddalar, biologik faol moddalar, makro- va mikroelementlarga nisbatan ehtiyojlarini to'liq qondirmaydi. Ratsionlarning oqsilli va energetik jihatdan nomutanosibligi, qand-oqsil va fosfor-kalsiy nisbatlarining pastligi, sigirlarda bachadonni tuqqandan keyingi qayta tiklanishining kechikishi ya'ni bachadon subinvalyutsiyasining kelib chiqishida asosiy etiologik omillar hisoblanadi. Sigirlarni yil davomida bir joyda saqlanishi, gipodinamiya va gipoinsolyasiya ularda modda almashinuvlarining buzilishlari jinsiy a'zolarida patologik o'zgarishlar kuzatilishiga olib keladi.

2.4.2. Klinik, gematologik va ginekologik tekshirish natijalari

Xo'jalikdagi sigirlarni klinik-ginekologik tekshirish bilan bachadonni kasalliklarining xarakteri o'rganilganda bachadon subinvalyusiyasi – 25 % ni, boshqa turdagi endometritlar – 28 %, yo'ldoshni ushlanib qolishi - 8%ni tashkil etdi.

Tajribalarimizni boshlashdan oldin tajriba va nazorat guruhlaridagi bachadon subinvalyusiyasibilan kasallangan sigirlarning klinik-fiziologik ko'rsatkichlari umumiy holsizlanish, befarqlik, ishtahaning o'zgarishi, oshqozon oldi bo'limlarining gipotoniyasi, shilliq pardalarning oqarishi (anemiya), qindan kataral-yiringli ekssudat oqishi, to'g'ri ichak orqali tekshirilganda bachadonni kattalashgan bo'lishi, bachadon qorin bo'shlig'iga tushgan, bachadon devori

bushashgan, bachadonda suyuqlik borligi, tuxumdonlarda sariq tanani hali soʻrilib ketmaganligi kabi klinik belgilar bilan tavsiflangan boʻlsa, tajribalarning oxiriga kelib faqat nazorat guruhidagi sigirlarda bu belgilarning saqlanib qolishi xarakterli boʻldi.

Bachadon subinvalyusiyas bilan kasallangan sigirlarda tana haroratini oʻrtacha $0,5-1^{\circ}\text{C}$, yurak urishi sonini bir daqiqada 10-15 martagacha ortishi, umumiy holsizlanish, ishtahaning oʻzgarishi, oshqozon oldi boʻlimlari qisqarishlarining kamayishi gipotoniyasi, shilliq pardalarning oqarishi (anemiya), qindan kataral-yiringli ekssudat oqishi qayd etildi. Bu koʻrsatkichlar bachadon subinvalyusiyasitana haroratining koʻtarilish va yurak urishi sonining ortishi bilan kechishi maʼlum boʻladi.

Tajriba va nazorat guruhidagi sigirlar qonining ayrim morfobiokimyoviy koʻrsatkichlari tajribalarni boshlashdan oldin bir xil koʻrsatkichlar bilan xarakterlangan boʻlsa, nazorat guruhidagi sigirlarda bu koʻrsatkichlarning tajribalar oxirigacha yomonlashib borishi qayd etildi

6-jadval

Tajriba va nazorat guruhidagi sigirlar ratsioni

Oziqalar	Miqdori, kg	Oz. Birligi	Hazmlanuvchi protein,g	Qand, g	Karotin, mg	Kalsiy, g	Fosfor, g	Kletchatka, g
Makka silosi	12	2,76	108	318	158,4	40,8	8,76	976
Bug'doy somoni	3	0,54	10,8	1,58	10,6	5,61	6,3	473
Paxta sheluxasi	3	0,64	63,0	-	-	13,2	3,3	1020
Paxta shroti	2	1,98	730	-	-	5,2	15,4	256,0
Ratsionda mavjud	20	5,92	911,8	319,6	169	64,51	33,7	2726
Oziqlantirish me'yori bo'yicha talab etiladi		8,0	840	680	385	70	40	2850
Farqi, +,-		-2,08	+71,8	-360,5	-216	-5,49	-6,3	-123,0

Qand-oqsil nisbati -0,34; fosfor- kalsiy nisbati - 0,52.

Nazorat va tajriba guruhlarida davolanayotgan guruhlardagi bachadon subinvalyusiyasi bilan kasallangan sigirlar gematologik ko'rsatkichlari 7-jadvalda keltirilgan. 7-jadvaldan ma'lumki, davolashning oxiriga kelib nazorat guruhida davolangan sigirlarga nisbatan tajriba guruhida yangi variantda davolangan sigirlarda gemoglobinni o'rtacha 5 g/l ga, eritrotsitlarni - 1,54 mln/mkl ga ko'payishi, leykotsitlarni 3,20 ming/mkl ga kamayishi va leykoformula ko'rsatkichlarining fiziologik me'yorlar darajasigacha yaxshilanishi xarakterli bo'ldi. Nazorat guruhidagi sigirlarda esa gemoglobin, eritrotsitlar soni, umumiy oqsil miqdorini kamayishi bilan xarakterlandi.

7-jadval.

Bachadon subinvalyutsiyasi bilan kasallangan sigirlar gematologik ko'rsatkichlari

Ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	Bachadon subinvalyutsiyasi bilan kasallangan sigirlar	
		Nazorat guruhi	Tajriba guruhi
Gemoglobin	g/l	108±0,27	113±0,29
Eritrositlar	10 ¹² /l	6,72±0,36	8,26±1,34
Leykositlar	10 ⁹ /l	6,76±0,12	10,56±0,14
Umumiy oqsil	g/l	60,8±0,8	76,5±0,09

Tajriba guruhidagi sigirlarda tajribalarning oxiriga kelib tajribalarning boshidagi ko'rsatkichlarga nisbatan klinik fiziologik statusning va qonning morfobiokimyoviy ko'rsatkichlarning yaxshilanishini qo'llanilgan preparatlarning organizmga ijobiy ta'siri bilan izohlaymiz.

2.4.3. Sigirlarda bachadon subinvalyutsiyasini davolash natijalari

Bachadon subinvalyutsiyasi bo'g'oz bo'lmagan hayvonlarda mazkur organga xos bo'lgan, bachadonning ilk holatigacha bachadonning tug'riqdan keyingi tiklanish jarayonlarining sekinlashuvidir. Bachadon subinvalyutsiyasida bachadon qisqarishlarining kamayishi yoki umuman bo'lmasligi hamda uning mushak to'qimalarining sekinlashgan retraksiyasi kuzatiladi. Kasallikning

etiologiyasi (kelib chiqishi), patogenez, belgilari va unga tashhis qo'yish haqida mazkur muqaddam to'liq yoritilgan.

Yallig'lanish tavsifiga ega bo'lmagan kasalliklarda, ko'payish organlarining holati to'g'risidagi aniq klinik ma'lumotlarga asoslangan holda medikamentoz davolash qo'llaniladi. Bachadon subinvalyutsiyasida davolashning asosiy vazifalari bachadonning qisqarish funksiyasi va tonusini qayta tiklash va shuningdek, bachadondagi epitelial to'qimalar regeneratsiyasi jarayonini stimulyasiyalashdan iborat bo'ladi.

Sigirlar bachadonning subinvalyutsiyasini davolashda sigetinning davolovchi ta'sirini o'rganish maqsadida tajribalar o'tkazish uchun, sigirlarni anamnez materiallari va rektal hamda vaginal tekshirishlar ma'lumotlari asosida tashhis qo'yildi. Ularning umumiy holatida me'yordan sezilarli siljishlar mavjudligi kuzatilganligini ham qayd qilish lozim.

SHuni ham alohida ta'kidlash lozimki, bachadon atoniyasi va gipotoniyasini davolash hamda embrional o'limning oldini olishda sigetinning samaradorligini o'rganishda, muqaddam o'tkazilgan tajribalarda yirik shoxli mollar uchun preparatning barcha terapevtik dozalari aniqlangan: menimal davolash dozasi 10 ml (100 mg); optimal dozasi 15-20 ml (150-200mg) va maksimal davolash hamda terapevtik dozasi – 30 ml (300 mg) katta yoshdagi hayvonlar uchun. SHularni hisobga olgan holda, tajribalarni soddalashtirish uchun biz sigetinning davolash ta'sirini o'rganishda (bachadon subinvalyutsiyasida) har bir hayvon uchun 15-20 ml lik dozani belgilab oldik.

Bizning tajribalarimiz 2015-2016 yillarning qishgi-bahorgi mavzumlarida, 4-6 yoshli 9 bosh sigirlarda, teng 3 guruhga bo'lgan holda olib borildi. Bu sigirlarda tug'riqdan keyingi 20-30 kun davomida modda oqishi to'xtamadi, ularning aksariyat qismida esa bachadon subinvalyutsiyasi to'liq yakunlanmagan. Vaginal tekshirishlar mobaynida bachadon bo'ynining qin qismi va qinda shilliq pardalarga qon qo'yilishi hamda bachadon bo'ynining to'liq yopilganligini aniqladik.

Rektal tekshirishlar natijasida bachadonning silliqligi, bo'shashganligi va uning tanasining suyuqliklar bilan to'lganligini aniqladik. 10 kun davomida hayvonlar ustidan umumiy nazorat o'rnatdik, ularni me'yoriy mikroklimatga ega bo'lgan boshqa molxonalarga o'tkazdik, faol harakatlanishi (motsion) uchun sharoit tug'dirdik va ratsiondagi etishmovchilik hamda ortiqcha moddalarni me'yorlashtirdik. Har 2-3 kunda bachadon va tuxumdonlarni rektal massaj qilib turdik, shuningdek har 5 kunda vaginal va rektal tekshiruvlar o'tkazib bordik.

Bachadonda ko'p miqdorda eksudatlar yig'ilganida, kaliy permanganat eritmasi (1:5000) yordamida yuvish yo'li bilan xalos qildik. Hayvonlarning umumiy holatini sistematik ravishda kuzatib bordik. O'n kunlik umumiy kuzatishlardan keyin tajribalar o'tkazishni boshladik.

Tajribaning birinchi guruhidagi kasal sigirlarga qo'yidagi tartibda davolash ishlari bajarildi:

- sigetin preparatidan 15 ml/ dozada kuniga bir marta 5 kun davomida muskul orasiga yuborildi.

- limoksin-200 antibiotigidan 12 ml kuniga bir marta 5 kun davomida muskul orasiga yuborildi.

- neofur tayoqchalaridan 2 dona davolashni 1, 3, 5, 7 kunlari bachadon ichiga.

- trivit 15 ml dozada muskul orasiga davolashni 2- va 7 – kunlari yuborildi.

- 10%-li kalsiy xlorid eritmasidan 150 ml, 20%-li glyukoza eritmasidan 250 ml, 20%-li kofein natriy benzoat eritmasidan 10 ml aralashtirilib vena qon tomiriga kuniga bir marta, 3 kun davomida yuborildi;

Ikkinchi tajriba guruhidagi bachadon subinvalyusiyasi bilan kasallangan sigirlar xo'jalikda joriy etilgan usulda quyidagicha davolandi:

- oksitotsin 50 IE (10 ml) dozada muskul orasiga kuniga bir marta 1,3,5 kunlari yuborildi.

- limoksin -200 antibiotigidan 12 ml kuniga bir marta 5 kun davomida muskul orasiga yuborildi.

- neofur tayoqchalaridan 2 dona davolashni 1, 3, 5 kunlari bachadon ichiga.

- trivit 15 ml dozada muskul orasiga davolashni 2- va 7 – kunlari yuborildi.

- 10%-li kalsiy xlorid eritmasidan 150 ml, 20%-li glyukoza eritmasidan 250 ml, 20%-li kofein natriy benzoat eritmasidan 10 ml aralashtirilib vena qon tomiriga kuniga bir marta, 3 kun davomida yuborildi;

Nazorat guruhidagi bachadon subinvalyusiyasi bilan kasallangan sigirlar xo‘jalikda joriy etilgan usulda quyidagicha davolandi:

- limoksin-200 antibiotigidan kuniga bir marta 5 kun davomida muskul orasiga 15 ml yuborildi.

- bachadon 3 kun davomida kuniga bir marta to‘g‘ri ichak orqali massaj qilindi;

- furazolidon tayoqchalaridan 2 dona davolashni 1, 3, 5 kunlari bachadon ichiga.

Davolash davomiyligi 7 kun davom etdi.

Barcha tajriba guruhlarida belgilangan tartib bo‘yicha davolash ishlari olib borildi. Jumladan, sigetin preparatidan 15 ml dozada kuniga bir marta 5 kun davomida muskul orasiga yuborildi. Sigetin sintetik estrogen preparat, bachadon qisqarish funksiyasini tiklaydi va kuchaytiradi. Bachadon qisqarishini stimullaydi, bachadonda qon aylanishini yaxshilaydi hamda hayvonlarni ko‘yga kelishini qo‘zg‘atadi, ovulyasiya siklini faollashtiradi.

Limoksin –200 antibiotik antimikrob ta’sirga ega. Hayvon organizmidagi barcha grammusbat va gramanfiy mikroorganizmlarni faoliyatini tuxtadi. Tajribadagi hayvonlarga 12 ml dozada kuniga 1 marta yuboirildi 5 kun davomida.

Neofur – antiseptik, yallig‘lanishlarga qarshi ta’sir xususiyatiga ega. Tajribadagi hayvonlarga bachadon ichiga 3 tayoqchadan 1, 3, 5, 7 kunlari yuborildi.

Oksitotsin bachadonni qisqarish funksiyasiga stimullovchi ta’sirga ega hamda sut ajralish refleksi faollashtiradi.

Birinchi tajriba guruhidagi sigirlarni davolanishi 8 kundan boshlab ijobiy natijalar berdi. Tajribadagi hamma sigirlar davolashni 9- kuni tuzaldi. Rektal

tekshirishlar shu narsa aniq bo'ldiki, bachadon hayvonni toz bo'shlig'iga joylashgan bachadon devorlari elastik va harakatchan.

Ikkinchi tajriba guruhidagi kasal hayvonlarni davolanishi 14 kun dan boshlab kuzatila boshlandi. Tajribaning 15-kuni hamma hayvonlar tuzaldi. Rektal tekshirishlar shu narsa aniq bo'ldiki, bachadon hayvonni toz bo'shlig'iga joylashgan bachadon devorlari elastik va harakatchan.

Nazorat guruhidagi hayvonlar esa davolanishi tajribaning 18-20 kunlarida kuzatildi. Davolashni 20- kuni hamma hayvonlar tuzaldi.

Preparatlarni in'eksiya qilishni boshlaganimizdan 15-20 kun o'tgach nerv – reflektor faoliyatning oshishi, harakatchanlik, tashqi jinsiy organlarning qizarishi hamda ayrim hayvonlarning bir- birining ustiga sakrash holatlari va boshqa belgilarni kuzatdik. Keyin esa hayvonlar jinsiy mayl hosil qila boshladi. Jinsiy maylni iskovchi aniqlovchi bo'qalar yordamida aniqladik.

Kuyikish namoyon qilgan sigirlarni an'anadagidek sun'iy urug'lantirildi. Urug'lantirilgandan keyin, qoidaga binoan implantatsiya va platsentlanish kunlarida embrional o'limning oldini olish maqsadida 2 marotabadan sigetin (20 ml dan) va oksitotsin 8 ml (40 XB) dan in'eksiya qilindi.

Bu guruhda preparatlarni oxirgi marta yuborgandan keyingi davrda (ikki marta urug'lantirishga binoan) otalanish ko'rsatkichlari tajribalar natijalarini yakuniy baholash kriteriysi bo'lib xizmat qildi, binobarin bu ko'rsatkichlar bo'yicha mazkur patologiyasi bo'lgan kasal hayvonlarga prepartlarning davolovchi – oldini oluvchi ta'siri haqida fikr yuritish va shuningdek, bachadon subinvalyutsiyasining to'liq yakunlanishi, embrional o'lim, sigirlar ko'payish organlari funksional faolligini oshishi yoki tiklanishi haqida xulosa qilish mumkin.

**Sigirlar bachadonining subinvalyutsiyasida sigetin va oksitotsinning
davolovchi ta'siri**

№	Tajriba guruhi	Hayvonlar soni (bosh)	Otalandi (%)			O'talanimadi (%)
			1-marta urug'lantirilganda	2-marta urug'lantirilganda	jami	
1	I-tajriba	3	66,6	33,3	100	-
2	II- tajriba	3	33,3	66,6	100	-
3	III- nazorat	3	-	66,6	66,6	33,3

Tajriba davri davomida birinchi tajriba guruhida sigirlar davolangandan keyin barcha 3 bosh (100%) sigirlar to'liq otalandi, ulardan 2 tasi birinchi urug'lantirishda, 1 boshi esa 2 urug'lantirish natijasida bo'g'oz bo'ldi.

Ikkinchi taajriba guruhida esa sigirlar davolagandan keyin 2 bosh (60%) sigir otalandi; ulardan 1 boshi dastlabki va 2 boshi qayta urug'lantirishdan keyin sodir bo'ldi.

Nazorat guruhida hammasi bo'lib 3 bosh sigir, ikkinchi urug'lantirishdan keyin 2 tasi otalandi 1 tasi otalanmadi.

2.5. Iqtisodiy samaradorlikni hisoblash

Qo'llanilgan dorilarni iqtisodiy samaradorligini aniqlash uchun qisir qolishdan keladigan iqtisodiy zararni hisoblash kerak. Buning uchun dorilar qo'llanilmagan 100 ta tanalar tekshirildi. Bu hayvonlarda bachadon subinvalyutsiyasi, ertangi embrional o'lim, servis davrining cho'zilishi tufayli 10000 kun hayvon qisir qolgan.

Natijada hayvonlar qisir qolishi tufayli $10000: 315 = 31,7$ bo'zoq va $10000 * 5 = 50000$ kg sut olinmadi.

Olinmagan sut tannarxi (1s sut narxi 60000 sum)

$$50,000 * 600 = 30000000 \text{ sum}$$

Olinmagan buzoq tannarxi

$$31,7 * 3,6 * 60000 = 6847200 \text{ sum}$$

Shunday qilib, qisir qolishdan iqtisodiy zarar 36847200 so'mni tashkil etadi. $30000000 + 6847200 = 36847200$.

Dorilar 100 ta qisir hayvonga qo'llaganda u hayvonlarda qisir qolish kunlari 7000 ni tashkil qiladi. Natijada 22,2 buzoq olinmadi: $7000: 315 = 22,2$ bu qo'yidagi so'mmani tashkil qiladi:

$$22,2 * 3,6 * 60000 = 4795200 \text{ so'm.}$$

Sutni tannarxi qo'yidagicha: $7000 * 5 * 600 = 2100000 \text{ so'm}$

Umumiy zarar $4795200 + 2100000 = 6895200 \text{ so'm}$

Hayvonni davolashda ketgan harajatlar quyidagi formulada ($D_h = D_{o'h} * Q_s$) hisoblandi, ya'ni bir bosh kasal molni davolashda 15000 so'm, dori va boshqa harajatlar esa 20000 so'm tashkil etdi.

$$D_h = 20000 * 100 = 2000000 \text{ so'm tashkil etdi.}$$

Dori qo'llashdan umumiy iqtisodiy zarar

$$4795200 + 6895200 + 2000000 = 13690400 \text{ so'm}$$

Demak, dorilarni qo'llaganda iqtisodiy samaradorlik qo'yidagini tashkil etadi: $36847200:13690400 = 2,70 \text{ so'm}$

Veterinariya tadbirlari uchun sarflangan 1 so'm xarajat hisobiga iqtisodiy samaradorlikni 2,70 so'mni tashkil etdi.

II- bob bo'yicha xulosa

1. Xo'jalikdagi sigirlarni klinik-ginekologik tekshirish bilan bachadonni kasalliklarining xarakteri o'rganilganda bachadon subinvalyusiyasi – 25 %ni, boshqa turdagi endometritlar – 28 %, yo'ldoshni ushlanib qolishi - 8%ni tashkil etdi.

2. Biz tajribalarimizda davolash maqsadida qo'llanilgan sigetin preparatini hayvonlar qonini morfologik ko'rsatgichlariga ta'sirini sog'lom sigirlarda o'rgandik. Aniqlandiki, sigetin minimal dozalarda (5-10 mg/kg) in'eksiya qilinganda sigetinining ta'siri ostida tajribaning dastlabki kunlarida eritrotsitlar soni va gemoglobinlar miqdorining kamayishi va aksincha leykotsitlar sonining ko'tarilishi kuzatiladi. Eng kam va o'rtacha dozalarda (ya'ni 5-10 mg/kg) hayvonlar qoni ko'rsatgichlari deyarlik bir xil yo'nalishda, lekin turli xil darajalarda o'zgarganligini qayd etish lozim. Sigetinining yuqori dozalarida esa (50 mg/kg), ancha mustaxkam qonuniyotlikka taniladi: eritrotsitlar soni va gemoglobulinning miqdoriy foizlari kamayadi, leykotsitlar soni esa aksincha ortadi.

Demak, sigetin minimal va o'rta dozalarda yuborilganda sigirlarni qon ko'rsatgichlariga qisman lekin tez tiklanuvchan ta'sirga ega. Katta dozalarda esa zaharlovchi ta'sirini namoyon qiladi.

3. Tajriba o'tkazilayotgan sigirlarni oziqa ratsioni tahlil qilinganda shu narsa aniq bo'ldiki, sigirlar ratsionining oqsilli va energetik jihatdan nomutanosibli, qand-oqsil va fosfor-kalsiy nisbatlarining pastligi, sigirlarda bachadonni tuqqandan keyingi qayta tiklanishining kechikishi ya'ni bachadon subinvalyutsiyasining kelib chiqishida asosiy etiologik omillar hisoblanadi.

4. Tajriba o'tkazilayotgan sigirlarni yil davomida bir joyda saqlanishi, ayniqsa homiodorlikning oxirgi 2 oyida matsionni talab darajasida bo'lmaganligi, gipodinamiya va gipoinsolyasiya ularda modda almashinuvlarining buzilishlari jinsiy a'zolarida patologik o'zgarishlar kuzatilishiga olib keladi.

5. Davolash o'tkazilgan tajriba guruhlarda bachadon subinvalyutsiyasi eng samarali davolangan guruhi birinchi tajriba guruhi hisoblandi: sigetin preparatidan 15 ml/ dozada kuniga bir marta 5 kun davomida muskul orasiga yuborildi, limoksin-200 antibiotigidan 12 ml kuniga bir marta 5 kun davomida muskul orasiga yuborildi, neofur tayoqchalaridan 2 dona davolashni 1, 3, 5, 7 kunlari bachadon ichiga, trivit 15 ml dozada muskul orasiga davolashni 2- va 7 – kunlari yuborildi, 10%-li kalsiy xlorid eritmasidan 150 ml, 20%-li glyukoza eritmasidan 250 ml, 20%-li kofein natriy benzoat eritmasidan 10 ml aralashtirilib vena qon tomiriga kuniga bir marta, 3 kun davomida yuborildi.

6. Nazorat va tajriba guruhlarida davolanayotgan guruhlardagi bachadon subinvalyusiyasi bilan kasallangan sigirlar gematologik ko'rsatkichlari davolashning oxiriga kelib davolangan sigirlarda gemoglobinni o'rtacha 5 g/l ga, eritrotsitlarni - 1,54 mln/mkl ga ko'payishi, leykotsitlarni 3,20 ming/mkl ga kamayishi va leykoformula ko'rsatkichlarining fiziologik me'yorlar darajasigacha yaxshilanishi xarakterli bo'ldi. Nazorat guruhidagi sigirlarda esa gemoglobin, eritrotsitlar soni, umumiy oqsil miqdorini kamayishi bilan xarakterlandi.

III-bob. TADQIQOT NATIJALARI BO'YICHA MULOHAZALAR

Qoramollar zotini yaxshilash va mahsuldorligini oshirish muammolarini samarali hal etishga katta to'sqinlik qilayotgan hayvonlarning yuqumsiz kasalliklari, shu jumladan sigirlarning bachadon subinvalyutsiyasi kasalligi asosiy o'rinni egallaydi.

Adabiyot ma'lumotlarining tahlili va shaxsiy kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, Respublikamizning chorvachilik fermer xo'jaliklariga chetdan keltirilgan mahsuldor sigirlarda bachadon subinvalyutsiyasi kasalligi oqibatidagi bepushtliklarning keng tarqalganligiga qaramasdan, bu kasallikning sabablari, rivojlanish xususiyatlari, ertachi aniqlash, davolash va oldini olishning samarali usullari to'liq ishlab chiqilmagan.

Sigirlarda bachadonning turli kasalliklari, shu jumladan bachadon subinvalyutsiyasi kasalligi oqibatida hayvonlar mahsuldorligining keskin pasayishi, ona hayvonlar reproduktiv xususiyatlarining yomonlashishi va ularning qisir qolishi hisobiga fermer xo'jaliklari katta iqtisodiy zarar ko'rmoqda. (Koba I.S. 2003)

